

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMLIK VADIZAYN INSTITUTI**

**AMALIY SAN‘AT FAKULTETI
BADIY KULOL VA ME‘MORIY YODGORLIKLAR
BEZAGINI TA‘MIRLASH KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Fakultet dekani
_____ S.Dj.Saidova
“ ___ ” _____ 2019 yil

5151200 –Amaliy san‘at ta‘lim yo‘nalishi,
Me‘moriy yodgorliklar bezagini ta‘mirlash bo‘limi talabasi

YO‘LDOSHEV SHERZOD MANSUR O‘G‘LINING

**“ULUG‘BEK MADRASASI HOVLI PESHTOQI BEZAKLARINI
TA‘MIRLASH LOYIHASI (SAMARQAND)”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
“Badiiy kulol va me‘moriy yodgorliklar
bezagini ta‘mirlash” kafedrasi dotsenti
_____ F.H.Islamov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Badiiy kulol va me‘moriy yodgorliklar
bezagini ta‘mirlash” kafedrasi mudiri
_____ D.T.Haytmetov
“ ___ ” _____ 2019 yil

Toshkent – 2019

Mazkur bitiruv malakaviy ishi Badiiy kulol va me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash kafedrasida bajarilgan. Badiiy kulol va me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash kafedrasining 2019 yil ____ ____dagi №__- sonli majlisida hamda Amaliy san'at fakultetining 2019 yil ____ ____dagi №__- sonli fakultet Kengashida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Taqrizchi:_____

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi 2019 yil __iyun soat____da Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o'tkazildi.

Manzil:Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi 123.

MUNDARIJA

KIRISH	4-8
I BOB. MIRZO ULUG‘BEK DAVRI ME‘MORCHILIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	
1.1. Mirzo Ulug‘bek davrida me‘moriy majmualarning shakllanishi.....	9-14
1.2. Registon maydoni obidalarini o‘rganilish tarixi.....	15-22
1.3. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining me‘moriy xususiyatlari.....	23-30
II BOB. MIRZO ULUG‘BEK MADRASASINING BEZAKLARINI TA‘MIRLASH JARAYONI VA LOYIHASI	
2.1. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining ta‘mirlash ishlari tavsifi.....	31-37
2.2. Mirzo Ulug‘bek davridagi inshootlarining badiiy bezaklari.....	38-42
2.3. Madrasaning hovli peshtoqi bezaklarining loyihasi va ashyodagi ishlar tahlili.....	43-46
XULOSA	47-49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	50-51
ILOVALAR	52-57

KIRISH

Samarqand dunyoning eng qadimiy va betakror shaharlaridan biri. U o'zida salkam 3000 yillik tarixni mujassam etgan. Uning qaysi bir go'shasiga nazar solmang, ulkan yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlariga ko'zingiz tushadi. Jumladan, hududda saqlangan va xalqimiz tomonidan asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan arxeologik yodgorliklar va me'moriy obidalarga ham qaytadan jon baxsh etildi. Ularning barchasi ta'mirlanib, ba'zilari yangidan bunyod qilindi. Bugun nafaqat xalqimiz, balki dunyo jamoatchiligi kelib ko'rsa, ma'naviy oziqlansa arziydigan muqaddas qadamjollarga aylantirildi.

Xalqimizning bunyodkorlik borasidagi ilmu salohiyati, boy an'ana va tajribalari asrlar osha dunyo ahlini hayratga solib kelayotgani sir emas. Shu bois ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan tarixiy inshootlarning qurilish va bezak ashyolari, arxitekturaviy yechimini o'rganish va tadqiq etishga qiziquvchilar Yer yuzining ko'plab mintaqalarida topiladi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, vatanimiz tarixida ma'naviy sarchashmalarga boy davrlar juda ham ko'pdir. Shunday yuksak davrlardan biri temuriylar davridir. Bu davrdan bizgacha qanchadan-qancha tarixiy jarayonlarni boshdan o'tkazib, o'zining qiymatini yo'qotmay kelgan Samarqandning Registon maydoni o'zining mahobatligi, noyob me'moriy xususiyatlari, boy qurilish va ta'mirlanish tarixi bilan ajralib turadi. Shu boisdan biz, o'z malakaviy bitiruv ishimizda Samarqand shahrining me'moriy ramzi hisoblanmish, Registon maydonining Mirzo Ulug'bek madrasasini ichki kirish portalini peshtoq bezagini ta'mirlash yuqorida qayd etilgan tomonlarini o'rganib chiqishni lozim topdik.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda me'moriy obidalarni o'zbek milliy davlatchiligi tarixida tutgan o'рни va obidalarni ob'yektiv, haqqoniy, tarixiy dalillar asosida o'rganish alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va

targʻib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu anʼanalari ruhida tarbiyalash boʻyicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda.¹

Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning qadim va navqiron Samarqand shahrining boy madaniy merosini saqlash boʻyicha: “Samarqanddagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarini taʼmirlash va obodonlashtirish ishlari izchil ettiriladi².” - degan qarashlarini dasturilamal qilib olgan holda ularning taʼmirlanishi lozim boʻlgan qismlarini tiklash va rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan va bir qator qayd etilgan omillardan kelib chiqib, oʻzbek davlatchiligi tarixida munosib oʻrin egallagan Mirzo Ulugʻbek davri meʼmorchiligining oʻziga xos jihatlarini yoritish va xulosalar chiqarish, obidalarni arxiv materiallaridan foydalangan holda tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Samarqanddagi obidalarning tarixi, ular bilan bogʻliq holda olib borilgan bugungi kundagi ishlarning koʻlami va taʼmirlash jarayonlarini oʻrganib, yangi materiallarni bevosita yilma-yil yoritib berish, tahlil etishga oid baʼzi takliflarni kiritish hozirgi kunda dolzarb masala boʻlib kelmoqda.

Malakaviy bitiruv ishining yana bir dolzarb tomonlaridan biri, buyuk hukmdor Mirzo Ulugʻbek davrida buyod etilgan Samarqand shahridagi Mirzo Ulugʻbek madrasasini ichki kirish portalini peshtoq bezagini taʼmirlash haqida ilmiy ish keng koʻlamda olib borilmaganligidir. Mustaqillikdan keyingi taʼmirlanish ishlarining sifat darajasi va unda ishlab kelayotgan ustalarning malakasi, madrasaning tarixdan qay tarzda bizgacha etib kelganligi haqida ilmiy ishlar olib borish va undagi talablarni toʻlaqonli oʻrganilmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Hozirgi kunda Respublikamiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligi va tashabbusi bilan mamlakatimizning turli viloyat va tarixiy shaharlarida mavjud boʻlgan meʼmoriy obidalarni butun holda saqlab qolish,

¹ Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПҚ-2995 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 24.05.2017 йил// Халқ сўзи.,103-сон., 2017

² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз// -Т.:Ўзбекистон, 2017. 187-бет.

kelgusi avlodlarga yetkazish uchun ularni ta'mirlash, konservatsiyalash hamda ulardan zamonaviy ehtiyojlar uchun samarali foydalanish bu ehtiyojlarga ularni moslashtirish, shuningdek mudofaa atroflarini tartibda saqlash kabi qator dolzarb va ezgu ishlar navbati bilan o'z yechimini topib, amalga oshirilib kelmoqda. Bu borada keltirib o'tilgan bir qancha ilmiy maqolalar kitob va nomzodlik ishlarni keltirib o'tish mumkin. Samarqanddagi Registon maydoni haqida ikkita monografiya, bir necha o'nlab ilmiy maqolalar va ma'ruzalar tayyorlanib chop etilgan. Registon maydoni haqidagi nashr etilgan monografiyalardan biri "Mavzoley Registan" deb yuritilib, olimlar hammualifligi, M.E.Masson tahriri ostida yozilgan ilmiy maqolalar to'plamidan iborat. U 1958 yilda rus tilida chop etilgan. Kitobda yodgorlikka doir deyarli barcha masalalar: yodgorlikning me'moriy rejaviy yechimi, uning naqshi-nigori, yodgorlik ustida olib borilgan me'moriy-arxeologik izlanishlar natijalari, yodgorliklarning qurilish tarixi kabi masalalar yoritib berilgan. Mualliflarga G.A.Pugachenkova, M.E.Masson va boshqalar kiradi³.

M.E.Masson rahbarligi ostida 1929 yilda nashr qilingan "Registan i ego medrese" deb nomlangan kitob Samarqandda nashr etilgan bo'lib, asosan Registon ansambli va uning madrasalari va ularning dastlab, qurilishdan oldingi loyihalaridan tortib, madrasalardagi har bitta hujralar haqida alohida ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, 100 yil oldingi eski shaharning bunyod etilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar keltirib o'tilgan⁴.

Mustaqilligimiz sharofati bilan me'morchilik sohasida juda katta yutuqlarga erishildi va bu borada me'morchilikka oid bir nechta kitoblar chop etilgan. Bulardan biri "Samarqand asrlar chorrahasida" deb nomlanib, 2001 yil nashrdan chiqqan bu kitob Samarqand shahriga "Amir Temur" orderi berilishi bilan bog'liq bo'lib, bu erda mustaqillikdan keyingi olib borilgan ishlar to'g'risida va me'morchilikda bo'layotgan o'zgartirishlar to'g'risida ta'kidlab o'tilgan⁵.

³ Алескерев Ю.Ж. Самарканд. Страницы истории. Ташкент. 1967 г.

⁴ Массон.М.Е. Регистон и его медресе. Самарканд. 1929 г.

⁵ Рўзиев. Э.М. Самарканд асрлар чорраҳасида. А.Қодирий. -Тошкент.2001. – Б. 19-35.

Yodgorlik haqidagi ikkinchi monografiya R.Sh.Zohidovning “Registon maydoni tarixi” deb ataladi. U 2007 yilda chop etilgan. Ushbu asarda muallif Registon maydoning yani Tillakori, Sherdor va Ulug‘bek madrasalarining ta‘mirlash jarayoni to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Ammo to‘liq holda ta‘mirlashning yilma-yil olib borilganligi ko‘rsatib o‘tilmagan⁶. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek davri me‘morchligi, Registon maydoni haqida G.A.Pugachenkova, R.Sh.Zohidov, V.L.Vyatkin, A.Yu. Yakubovskiy, A.S. Uralov, Sh.A.Asqarov, V.A.Shishkin, V.A.Lavrov, L.I.Rempel, M.S.Bulatov, B.N.Zasipkin, V.A.Nilsen, L.Yu.Mankovskaya, I.E.Pletnev, P.Sh.Zohidov, A.S.O‘rolov, M.Q.Ahmedov, Sh.D.Asqarov, D.A.Nozilov, M.A.Yusupova, G.I.Korobovtsev kabi olimlar tomonidan yaratilgan asarlar va maqolalar chop ettirgan. Bunday ilmiy manbalarning ko‘pligi malakaviy bitiruv ishining mukammaligini va ilmiylik darajasini oshirishga, tanlangan mavzuni chuqurroq o‘rganishni asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari mavzuga aloqador ilmiy maqolalarga murojaat qilindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan inshootlar o‘rganish orqali bugungi kunda ta‘mirlashga muhtoj yodgorlik bezaklarini saqlab qolish xususan, Mirzo Ulug‘bek madrasasini ichki kirish portalini peshtoq bezagini ta‘mirlash masalalarini ilmiy jihatdan har tomonlama ochib berish va buni o‘z chizmalarimiz bilan ko‘rsatish, shuningdek, ishning amaliy qismini ketma-ketlikda yaratish, izohlash mavzuning asosiy maqsadi qilib belgilandi. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Mirzo Ulug‘bek davri me‘morchilining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish;
- Samarqand shahridagi Mirzo Ulug‘bek va keyinchalik - Ashtarxoniylar davrida qurilgan Registon maydoni obidalarni tarixi va ta‘mirlash jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;
- Ulug‘bek, madrasasining o‘ziga xos tomonlarini ochib berish va bugungacha o‘rganilmagan jihatlarini ko‘rib chiqish;

⁶ Зоҳидов.Р.Ш. Регистон майдони тарихи. А.Қодирий. -Тошкент.2007 й. Б. 47-69.

- Ulug‘bek madrasasida olib borilgan ta‘mirlash jarayonlarni uzluksiz ravishda tahlil qilib, borish;
- madrasaning kirish peshtoqi bezagini ta‘mirlash ishlari bo‘yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mirzo Ulug‘bek madrasasining ichki peshtoq qismining bezaklarini ta‘mirlanish jarayonlari bo‘yicha dalillar bilan manbalar va arxiv materiallari birinchi marta qiyosiy tahlil qilinmoqda. Shuningdek, tanlangan masala yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar yilma-yil guruhlashtirildi, ayrim kitoblardagi fikr-mulohazalar tanqidiy nuqtai-nazardan tahlil qilindi. Masala mohiyatini yoritishda sobiq sovet davridagi Registon ansamblining restavratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan kitob va maqolalardagi fikrlarning mohiyati ochib berildi. Malakaviy bitiruv ishi so‘ngida to‘plangan arxiv materiallari va mustaqillikdan keyingi olib borilgan ishlarining yozma tarzda keltirib o‘tilganligi muallif tomonidan chiqarilgan xulosalar, ishlab chiqilgan loyihalar ham tadqiqot yangiligi bo‘la oladi.

Tadqiqot predmeti va ob‘yekti. Tadqiqotning predmeti Samarqand shahrida qad ko‘targan Mirzo Ulug‘bek madrasasini ichki kirish portalini peshtoqining badiiy bezaklari va ularni ta‘mirlash jarayonini ko‘rsatish bo‘lsa, tadqiqotning ob‘yekti qilib Samarqand shahridagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi olindi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan va olingan ilmiy natijalar talaba va o‘quvchilarga avvalo Ulug‘bek davri me‘morchligining o‘ziga xosligi, Registon maydoni obidalari tarixini o‘rganishlari, Mirzo Ulug‘bek madrasasi singari boshqa qadimgi inshootlarni ta‘mirlash uslublaridan foydalanishlari mumkin. Mavzu yuzasidan keltirib o‘tilgan ma‘lumotlar ilmiy asosga ega bo‘lib, tavsiya va xulosalar Registon maydoni obidalarini ta‘mirlash ishlarini rivojlantirishda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ishlarni amalga oshirish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy qismi. Mazkur malakaviy bitiruv ishi maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda: kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Matnning hajmi 57 sahifani, illyustratsiyasi jami 7 ta planshetni tashkil etadi.

I BOB. MIRZO ULUG‘BEK DAVRI ME‘MORCHILIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

1.1. Mirzo Ulug‘bek davrida me‘moriy majmualarning shakllanishi

Tarixdan ma‘lumki, Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davri (XIV asr oxiri - XV asrning 1-yarmi) da yirik va ko‘rkam shaharlar qurilishi davlatning asosiy vazifalariga kirgan. Amir Temur va uning vorislari saltanat shaharlarini rivojlantirishga va dunyoda ularning mavqelarini ko‘tarishga juda katta e‘tibor berishgan. Temuriylar davrida Samarqand, Shahrisabz, Buxoro va boshqa shaharlarning burj va darvozalari bo‘lib, mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Shaharlar ark va hisordan iborat bo‘lib, uning markaziy qismi, ko‘chalar kesishgan joyda yopiq savdo inshootlari – chorsular bilan ajralgan. Juma masjidlari va shahar bozori markazni tashkil etgan, bosh madrasa oldidagi maydonlar esa shaharning ikkinchi markazini ifodalagan. Hunarmandchilik kasb–koriga ko‘ra aholining tabaqalariga bo‘linishi mahalla, daha singari shahar qismlarini keltirib chiqargan. Bosh ko‘chalar hunarmandchilik va savdo rastalaridan iborat bo‘lgan. Keng bo‘lmagan ko‘chalar maydon va hovuzlar bilan aholi yurish, to‘xtash joylarini tashkil etgan. Bu borada tadqiqot olib brogan olim G.A.Pugachenkova temuriylar shaharlariga quyidagicha ta‘rif beradi: “ark-qal’alar – bu davlatning kuch-qudrati, saroylar – hokimiyatning shukuhi va savlati, islom madaniy binolari – musulmonlar mafkurasining g‘alabasi, bozor qurilmalari – hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji, zich qurilgan uy-joylar – murakkab shaharlar organizmining tanasi va qonidir”.⁷

Bu davrdagi me‘morlar yangi inshootlarni tiklashda ularning mavjud bo‘lgan inshootlar bilan o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni oldindan hisobga olishgan, ularni oqilona ravishda muvozanatlashtirganlar. Shu tariqa badiiy uslubning go‘zallik bo‘yicha takrorlanmas arxitekturaviy majmua vujudga kelgan. Bunday majmualardan

⁷ Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии XV век. Ведущие тенденции и черты. -Т.: 1976, 10-бет.

Samarqanddagi Registon ansambli va Shohi zinda majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Professor M.Q.Ahmedov “Ansambl tuzilmalarining shakllanish shartlaridan biri shulki, ikki yoki bir necha bino uchun ma’lum ko‘cha, maydon, hovli va landshaft yoki ularning biror qismi umumiy kompozitsiya tashkil etishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ansamblni tashkil etuvchi inshootlar avvalambor o‘sha asosga moslashtiriladi. Bunda mana shu imoratlarning kirish qismlari kompozitsiya o‘qlari, massasi, shakli, tusi va boshqa badiiy jihatlari shu asosda o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Ansambl badiiy barkamolligining naqadar yuksak darajaga erishganligi yoki erishmaganligi ushbu muvofiqlashtirishning uyg‘unlashuv darajasiga bog‘liq bo‘ladi” – deb yozadi.

XIV – XV asr me’morlari mahobatli majmualarni yaratishda yagona o‘qda yotuvchi ikkita binoni bir-biriga qaratib qurishdek eng sodda usulni qo‘llashgan: bu ikki bino baland peshtoqlarga ega bo‘lgan. Ularning birinchisi mavjud bo‘lib, ikkinchisi go‘yoki birinchisining ko‘zgudagi aksidek namoyon bo‘ladi, lekin ular kompozitsiyasi bilan bir-biridan farq qiladi va shu bilan bir qatorda o‘zaro muvozanatlashgan. Bunday uyg‘unlik “qo‘sh” deb atalgan. Ular katta bo‘lmagan maydon yoki ko‘cha orqali bir-biridan ajratilgan. Amir Temur davrida Samarqand histori ko‘plab tarixiy yodgorliklar bunyod etilgan. Amir Temur jome masjidi va uning qarshisidagi Saroymulxonim madrasasi, shahzoda Muhammad Sulton madrasa va xonaqohi, uning yonidagi Go‘ri Amir maqbarasi, mazkur obida bilan bir o‘qda qurilgan Ruhobod maqbarasi shular jumlasidandir. Shunga qaramay, Samarqandga asosiy me’moriy–tashkiliy markaz yetishmasdi. Va bu masalani Mirzo Ulug‘bek hal etdi. U hukmronligining ilk yillaridayoq Registon maydonini obodonlashtirishga kirishdi, butun va yagona me’moriy fikrni shu yerda mujassam etdi.

Mirzo Ulug‘bek shaharlarda arxitekturaviy majmualar yaratishga juda katta e’tibor bergan. Bu majmualar shaharlarning markaziy qismlariga yaqin joyda qurilgan va aholi eng ko‘p to‘planadigan joylaridan biri hisoblangan. Ular tarkibiga turli tipdagi inshootlar: ilmiy – madrasalar, diniy – masjidlar va xonaqohlar, dunyoviy – karvonsaroy, savdo inshootlari va hammomlar kirgan.

Amir Temur qurdirgan ko‘p sonli saroylar, maqbaralar, islom va musulmonchilikka oid inshootlar sulolaviy xarakterga ega bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek ham shunga kamroq qamrovda itoat etgan holda ta‘lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari qurilishiga urg‘u bergan. Chunki ular Mirzo Ulug‘bekning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishiga to‘liq javob bergan.

XV asrning birinchi yarmida yuqori darajadagi ilm maskanlari – madrasalar va madrasayi-oliyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Mirzo Ulug‘bekning uch: Samarqand, Buxoro va G‘ijduvon madrasalari, shuningdek rasadxonasi o‘sha davrlarda me‘morchilik san‘atining va ma‘naviyatning yuksak pog‘onaga ko‘tarilganligidan darak beradi. X asrda Narshaxiy tomonidan aytib o‘tilgan Forjak va XI asrda Samarqandda qurilgan Qoraxoniylar Timg‘och Bog‘raxon madrasalari bizgacha yetib kelmaganligi bois temuriylargacha bo‘lgan madrasalarning qanday rivojlanganligi hozircha ma‘lum emas.

Bugungi kungacha mavjud bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek madrasalarida to‘liq mukammal arxitekturaviy uslubni ko‘rishimiz mumkin. Undan keyingi davr qurilishlarida asosan Mirzo Ulug‘bek yaratgan arxitekturaviy shakllar qaytarilgan. Bu davr madrasalari ichki hovlilari yopiq to‘rtburchak binodan iborat bo‘lib, atrofida talabalar yashaydigan hujralar, burchaklarida esa keng darsxonalar joylashgan. Hovlining asosiy o‘qida chuqur ravoqli ayvonlar bo‘lgan. Ba‘zida ularning soni to‘rttagacha yetgan. Yilning issiq vaqtida ayvonlar o‘quv mashg‘ulotlari o‘tadigan yarim ochiq darsxonalar vazifasini o‘tagan. Madrasalar tarkibida masjidlar ham bo‘lgan.

Professor A.S.O‘rolov bu davr arxitekturasini quyidagicha ta‘riflaydi: “Mirzo Ulug‘bek o‘zining bunyodkorlik faoliyatini shaharsozlik, me‘morchilik, bog‘-landshafti, qayta tiklash va ta‘mir ishlari, tasviriy san‘at va naqqoshlik kabi sohalarda keng ko‘lamda olib bordi. Muhimi shundaki, u bu ishlarni nafaqat poytaxt Samarqandda, balki Shahrisabz, Buxoro, G‘ijduvon, Yassa, Marv, Zangi ota kabi shaharlar va kasabalarda olib borib, ayni paytda el-yurt ma‘murchiligi va farovonligiga avj berdi.

Samarqandda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarining mavqei va unda qo‘lga kiritilgan yutuqlar bu yerda o‘ziga xos me‘moriy maktab yaratilganligining dalilidir⁸”.

Ma‘lumki, Mirzo Ulug‘bek tomonidan yaratilgan uch madrasaning hajmiy jihatdan bir-biriga o‘xshamasligi, ular o‘sha joy aholisi soni inobatga olingani holda qurilganidir. Shuningdek, madrasalarning hajmiga qarab ularning tuzilishi ham o‘zgargan. Bu uchala madrasa va madrasayi-oliyada peshtoq qismining sezilarli darajada rivojlanganligini, boyiganini ko‘ramiz. Bundan tashqari, peshtoqning juda bezakdorligi, kirish qismining ikki yonida auditoriya yoki masjid vazifasini o‘tovchi ikki katta gumbazli xonalar mavjudligi, murabba tarxli hovli, hovlini o‘rab turgan bir yoki ikki qavatli ravoqlar va ular ortida joylashgan hujralar asosiy uslubni belgilab bergan. Barcha uch madrasaning tarxlari simmetrik tarzda loyihalangan.

Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi - butun jahonga mashhur bo‘lgan o‘rta asrlar astronomiyasi va arxitekturasi yodgorligidir. O‘sha davrda Samarqand rasadxonasidek yirik, tuzilishi mukammal va murakkab inshootlar qurishga jazm qilmoq uchun nafaqat ilmi hay‘at va riyoziyot, balki muhandislik bilimlarini ham chuqur bilmoq kerak edi. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi o‘zining mazmun-mohiyati, qurilishi va hajmi jihatidan o‘sha davrda jahonda yagona bo‘lgan.

Bu yerda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlarining dastlabki yillaridanoq astronom, matematik olimlar va ayniqsa, arxitektorlar o‘rtasida rasadxonaning yaratilgan dastlabki arxitekturaviy kompozitsiyasi va qiyofasi to‘g‘risida turli xil qarama-qarshi fikr-mulohazalar yuzaga kelgan. Rasadxonada qidiruv-qazilma ishlari 1908, 1909, 1941, 1948 va 1967 yillarda olib borilgan. Rasadxona diametri 48 metrni tashkil etadigan dumaloq shaklga ega bo‘lgan. Uni grafik tiklash loyihalari ustida bir qancha olimlar izlanishlar olib borishgan va hozirgi kunda ham izlanishmoqda. Ko‘pgina taniqli olimlarimiz tomonidan rasadxonaning 3, 6 va 7 qavatli grafik rekonstruksiyalari ishlab chiqilgan. Taniqli olim P.Sh.Zohidovning fikricha esa “Ulkan inshoot” deb atalgan

⁸ Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият -Т.: 1994, 82-бет

ushbu bino aslida bir qavatli bo'lgan. Bu boradagi tortishuvlar va izlanishlar hali oxirgi yechimini topganicha yo'q.

Buyuk bunyodkor, olim va davlat hukmdori Mirzo Ulug'bekning Registon maydonida olib borgan ishlari ayniqsa tahsinga loyiqdir. U bu yerda bir nechta imoratlarni uyg'un tarzda muvozanatlashtirib, o'ziga xos me'moriy ansambllarni yuzaga keltiradi. Bu imoratlar qatorida hozirda saqlanmagan Muqatta' masjidi, karvonsaroy, hammom va xonaqoh ham bo'lgan. Masjid haqida Bobur Mirzo o'z Boburnomasida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. "Muqatta'" degan nom "o'ymakor" ma'nosini anglatadi. Zero masjidning butun usti yog'och o'ymakor naqshlar bilan qoplangandi. Samarqandda keyinroq qurilgan guzar majmualari bilan solishtirganda Muqatta' masjidi qishki xonaqoh va mehrobli ustunli galereyaga ega bo'lgan. Boburning guvohlik berishicha, o'ymakor ustun va shiftlar islmiy va xitoy naqshlar bilan bezatilgan edi. Bundan XV asrning 1-yarmida yog'och o'ymakorligi san'ati naqadar rivojlanganligini anglashimiz mumkin.

Temuriylar qurdirgan maqbaralar shakllanish kompozitsiyasi bo'yicha ikkiga bo'linadi: bir xonali va ko'p xonali (Samarqanddagi Oqsaroy, O'lja enaga, Ishratxona va boshqalar) maqbaralar. Bir xonali maqbaralarning o'zi ikki xil ko'rinishga ega: chortoq ko'rinishida (Ruhobod, Cho'pon ota, Qaldirg'ochbiy va boshqa maqbaralar) va gumbazli – peshtoqli (Shohi zinda majmuasida qurilgan maqbaralarning asosiy qismi, Shahrisabzdagi Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon, Marv yaqinidagi Ashoblar maqbaralari).

Mirzo Ulug'bek tomonidan Kesh, ya'ni Shahrisabz markazida "Dor ut-tilovat" majmuasi qurib bitqazilgan. 1435-36 yillarda Kulol maqbarasi qarshisida jome masjidi bunyod etilib, undagi yozuvlarda Mirzo Ulug'bek va uning otasi Shoxruh nomlari tilga olingan. Shayxning maqbarasi yonida esa yangi maqbara qurilgan.

Shohi zinda majmuasi kompozitsiyasining yakunlanishini ham Mirzo Ulug'bek davri belgilab bergan. Bu yerdagi bir necha inshoot XV asrga mansubdir. XIV-XV asrlarda Shohi zinda ayollar qabristoni, ya'ni temuriylar xonadonining bekalari dafn etiladigan maskanga aylangan. Registon va Dor ut-tilovat kabi me'moriy ansambl

tarzida tashkillashtirilgan majmualardan farqli o'laroq, Shohi zindaning qaysi tarafidan boqmang, u yangi shakl va tuzilishlarda namoyon bo'ladi. Shohi zinda bu jihatdan nodir inshoot sanalib, unda Mirzo Ulug'bek davri me'morlarining hissasi va mahorati mujassam topgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqandda o'z nomi bilan atalgan madrasa qarshisida xonaqoh qurilgan bo'lib, u bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

Buyuk bobokalonimiz Toshkentda ham qurilish ishlarini olib borgan. Ulardan uchta kichik maqbara va bir masjid saqlanib qolgan. Maqbaralardan ikkisi shahar tashqarisidagi Zangi ota qishlog'i yonida joylashgan Zangi ota majmuasi tarkibidadir. Shu nom bilan ataluvchi maqbara yonida Anbarbibi, ya'ni uning rafiqasining maqbarasi joylashgan. Ba'zi manbalarda keltirishlaricha, bu ikki maqbara Amir Temur nomi bilan bog'liq. Ammo me'moriy jihatlariga qaraganda inshootlar Sohibqiron hukmronligining so'nggi yillariga yoxud Mirzo Ulug'bek davriga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug'bek davri arxitekturasi nafaqat o'zining yangi shaharsozlik g'oyalari, majmuasozlik mahorati, hashamatli imoratsozligi, turli-tuman qurilmalar va naqshu-pardoz vositalarining yaratilishi bilan ajralibgina qolmasdan, o'zidan keyingi davrlarda boshqa yondosh davlatlar me'morchiligi taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganligi keltiriladi. Mirzo Ulug'bek davri me'moriy obidalalari o'zining tarixiy qiymati, badiiy-me'moriy jihatdan yuksakligi, xushbichimligi, juda boy bezaklari, bu bezaklarning hajm sathlariga mosligi, ya'ni me'moriy mutanosibligi bilan ajralib turadi.

1.2. Registon maydoni obidalarini o‘rganilish tarixi

Samarqand – azaldan Sharqning gavhari deb hisoblanadi. Sharq va G‘arbni o‘zaro bog‘lagan Buyuk ipak yo‘lini Samarqanddan o‘tganligining o‘ziyoq uning dunyo rivojlanishida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini anglatib turibdi. Asrlar davomida barcha qadamjolarimiz, ulardagi osori-atiqalar va shahrimiz tarixi mustabid tuzum g‘oyalari asosida talqin etib kelingan. Samarqand dunyoning eng qadimiy va betakror shaharlaridan biri. U o‘zida juda uzoq yillik boy tarix va qadimiy sivilizatsiya namunalarini mujassam etadi. Zarafshon vohasining markazida joylashgan bu tarixiy shahar azal–azaldan o‘troq hayot, sug‘orma dehqonchilik, ilm-fan va taraqqiyot markazi bo‘lishi bilan birga, jahon tarixida haqli ravishda insoniyatning madaniyat beshiklaridan biri sifatida e‘tirof etilgan⁹.

Samarqandning vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiy topishi to‘g‘risida tarixiy manbalar, moddiy va madaniy yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida ko‘pgina ma‘lumotlar mavjud. Ko‘hna Sharq yozma merosining noyob durdonasi «Avesto» kitobida Zarafshon vohasida joylashgan So‘g‘d o‘lkasining ajoyib iqlimi, serhosil yerlari haqida so‘z boradi. Abul Abbos Ja‘far ibn Muhammad al-Mustag‘firiyning «Tavorixi Samarqand», Abu Hafs Najmiddin Umar bin Muhammad an-Nasafiyning «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand», Abulfazl Muhammad ibn Abdujamil ibn Abdumalik Haydar as-Samarqandiyning «Qandiyai Xurd» kabi yuzlab

⁹ Кличев. Н. Самарқанд// Мехнат -Тошкент.: 2001 й. Б 27-30.

tarixiy, jugʻrofiy, adabiy, badiiy asarlarida shahar tarixi, uning bagʻrida yashab oʻtgan buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz avliyolar haqida maʼlumotlar berilgan.

“Samarqand” atamasining maʼnosi haqida ham tarixiy manbalarda turlicha fikrlar bor. Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshgʻariy «Devonu lugʻatit turk» asarida «Samarqand» atamasi turkiyda boy, obod shahar degan maʼnolarini bildirishi haqida yozgan.

Samarqand haqida afsona va rivoyatlar shaharning beqiyos shon-shuhrati va tarixi bilan bogʻliq. Arab tarixchisi Abu Ali Muhammad bin Muhammad Balʻami (X-asr) «Samarqand shahriga Iskandar Zulqarnayn bosqinchiligidan 3000 yil ilgari asos solingan» deb yozib qoldirgan. Abu Hafs Najmiddin Umar bin Muhammad an-Nasafiy bu xususda «Qutayba ibn Muslimdan 2250 yil oldin shahar barpo boʻlgan» deb yozadi.

Maʼlumki, koʻhna Samarqand xarobalari hozirgi kunda Afrosiyob nomi bilan mashhur. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida tarixiy shaxs Afrosiyob Turon oʻlkasining podshosi sifatida tasvirlanadi. Bu shaxs «Avesto»da Franrasyan, turkiy manbalarda esa Alp Er Toʻnga nomi bilan qayd etilgan.

Samarqandning shakllanish va rivojlanish davri Afrosiyob yodgorligidan boshlangan. Aholi bu muhtasham shahar qoldiqlarini asrlar davomida «Afrosiyob xarobalari» deb atab keladi. Samarqand Chingiz qoʻshini tomonidan 1220 yil batamom vayron qilingan. Shundan beri qadimiy shahar xarobaga aylangan holda yer qaʼrida koʻmilib yotibdi. Uning hududi hozirgi shaharning shimoliy qismida boʻlib, 219 gektar maydonni egallaydi.

Afrosiyobning eng qadimgi davrlariga oid osori – atiqalar yodgorlikning shimoliy tarafidan topilgan. Ular miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga mansub mudofaa devori, shahar arkining qoldiqlari, harbiy – maʼmuriy markazdan iborat. Ark baland va mustahkam devor bilan oʻralgan. Demak, Afrosiyob miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Zarafshon vohasidagi madaniyati shakllangan markaziy shaharlardan biri boʻlgan.

«Avesto» kitobi va arxeologik manbalarga koʻra, Soʻgʻdda davlatchilik miloddan avval VIII-VII asrlarda shakllangan va uning poytaxti Samarqand shahri boʻlgan. Bu kitobda «Soʻgʻd» mamlakati va viloyatlarning eng yaxshisi sifatida taʼriflanadi.

Samarqand haqidagi ma'lumotlar kam bo'lsada, qadimgi Fors va Yunon tarixi manbalarida ham uchraydi. Bulardan eng qadimiysi ahmoniy Doro I va Kserks I tomonidan miloddan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshida mixxat uslubida yozdirilgan Behistun va Naqshi Rostam bitiklaridir. Miloddan avvalgi 329 yilda, Aleksandr Makedonskiy o'z qo'shinlari bilan Amudaryodan kechib o'tib, Turon poytaxti Samarqandni zabt etadi va shu tariqa bu shahar tarixida yangi bir mustabidlik davri boshlanadi¹⁰.

Samarqand - Buyuk ipak yo'li chorrahasining qoq markazida joylashgani uchun ham nafaqat savdo sotiq, balki katta ishlab chiqarish va hunarmandchilik markaziga aylangan edi. Arablar Movarounnahrni fath etgach, ajdodlarimiz islom dinini qabul qilgan. So'g'dda zardushtiylik dini hukmron bo'lgan davrlarda ham, islom kirib kelganidan keyin ham diniy bag'rikenglik an'analari saqlangan.

X asr geografi Istaxriy, Samarqandni Movarounnahrning quruqlikdagi bandargohi deb ataydi. IX-XII asrlarda Samarqand Sharq Rennesansining beshiklaridan biriga aylanadi. Aynan shu davrda Samarqandda Imom Abu Mansur Motrudiy, Abu Hasan Samarqandiy, Muhammad Nasafiy Samarqandiy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Fazl Muhammad Samarqandiy, Abul Hakim Samarqandiy va So'zani Samarqandiy kabi o'nlab allomalar ijod qildilar. Bu davrlarda Samarqand astronomiya, tibbiyot, tarix, falsafa, adabiyotshunoslik, fiqh va ilohiyotshunoslik fanlarining markaziga aylandi.

1218 yili Chingiz boshchiligidagi mo'g'ul askarlari Movarounnahrda yurish boshlaydi. Ular 1220 yilning bahorida Samarqandga hujum qilib, shaharni shu qadar vayron qildiki, Afrosiyob ayanchli xarobazorga aylanadi. Mo'g'ullarning 150 yillik istibdodiga buyuk Amir Temur barham berdi. Samarqandning keyingi yuksalish davri ham sohibqiron Amir Temur faoliyati bilan chambarchas bog'liq. U Samarqandda qadimgi shaharsozlik madaniyatini qayta tiklaydi, unga yangicha jilo, ko'rku tarovat bag'ishlaydi hamda shaharda bir – biridan go'zal, betakror obidalar, Jome' masjidi,

¹⁰ Ettinghausen R., Grabar O. The Art and Architecture of Islam 650-1250//Yale University Press (Pelican History of Art). 1987.

Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Ishratxona, Oqsaroy, Ruhobod, Shohi-Zinda kabi majmualarni bunyod qildiradi. Bu haqida yuqorida to'xtalib o'tgan edik.

Amir Temur davrida boshlangan bunyodkorlik ishlarni, uning nabirasi Mirzo Ulug'bek davrida ham davom ettiriladi. Registon maydonida Mirzo Ulug'bek madrasasi, Cho'ponota etaklarida bog'u ko'shklar va rasadxona barpo etiladi. Natijada Samarqand yanada obod va ko'rkam bo'ladi. Shu bilan birga Mirzo Ulug'bek rahnamoligida shahar o'ziga xos ilmiy markazga aylanadi. Buyuk davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bir necha bor Samarqandda bo'lib, ma'lum muddat uni boshqaradi. Uning Samarqandga bo'lgan mehru-muhabbatini quyidagi so'zlaridan ham bilishimiz mumkin: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur".

Shayboniylar sulolasi davrida o'zaro taxt talashishlar iqtisodiyot va madaniyat yo'liga g'ov bo'ladi. Shayboniy xonlaridan bo'lmish Abdullaxon II poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chiradi. 1599 yildan boshlab esa Movarounnahrda hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tadi. Bu davrda Samarqand poytaxtlik maqomini yo'qotgan bo'lsa-da, yirik iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqeini saqlab qolgan edi. Markaziy hokimiyatning zaifligidan foydalangan Samarqand hukmdori Yalangto'shbiy Bahodir deyarli mustaqil siyosat yurgiza boshlaydi. U shahar obodonchiligiga katta e'tibor berib, Sherdor va Tillakori kabi muazzam madrasalar barpo etadi. Shu tariqa Registon maydoni g'oyat go'zal va muhtasham bir maskanga aylanadi. Nodir Devonbegi esa Xoja Ahror xotirasi uchun hashamatli madrasa va boshqa bir qator binolar barpo qildiradi. XVII asrning ikkinchi yarmida Shohmurodbiy otaliq (Amir Ma'sum) davrida shahar yanada rivojlana boshlaydi.

Chor Rossiyasi armiyasi Turkiston hududiga bostirib kiringach, 1868 yili Zarafshon okrugini, 1887 yili esa Samarqand viloyatini tashkil etadi va Samarqandni uning markazi qilib belgilaydi. Xom-ashyo manbasiga aylanish, savodsiz, madaniyatsiz xalq sifatida dunyoga tanitish kabi shafqatsiz harakatlar ochiqchasiga bayroq qilib olinadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita tashabbusi va rahbarligida shahar tarixida balki mamlakatimiz miqyosida tom ma'noda tarixiy burilish yuz berdi. Samarqand sobiq

tuzum davridagi kabi shunchaki viloyat markazi emas, balki yurtimizning necha ming yillik tarixi, milliy davlatchilik an'analarini o'zida aks ettirgan, dunyo ahli e'tiborini o'ziga tortadigan, qadimiy va zamonaviy madaniyatlar uyg'unlashgan buyuk shaharga, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning haqiqiy g'urur va iftixoriga aylandi.

Samarqand –Amir Temur nomi bilan atalgan ordenni birinchi bo'lib olishga sazovor bo'lgan tabarruk shahardir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yilning 18 oktyabrida shahar bayrog'iga 1 raqamli «Amir Temur» ordenini taqib qo'ygani va 18 oktyabrni «Samarqand kuni» deb e'lon qilgani bu shaharga Vatanimiz tarixidagi xizmatlari uchun berilgan yuksak baho sifatida Samarqand ahlining qalbida toabad muhrlanib qoladi.¹¹

Registon maydoni Samarqandning o'ziga xos ko'zgusidir. Registon degan so'z fors-tojik tillariga mansub bo'lib, "qumli joy" degan ma'noni bildiradi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda bu yerda janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbga katta ariq oqib o'tgan, vaqt o'tib ariq qurigandan so'ng, o'rnida qumloq joy qoladi va ana shu tariqa Registon so'zi kelib chiqadi¹².

Registon ansambli 200 yil mobaynida qurilgan bo'lib, mukammal kompozitsiyani tashkil etadi va uchta madrasadan iborat. Ular to'g'ri burchakli sathi 75x63 m bo'lgan maydonning uch tomonida joylashgan.

XIV asrda buyuk Sohibqiron Amir Temur hukumroniligi davrida hozirgi Registon maydoni o'rnida markaziy bozor bo'lgan. Shu davrdan Samarqand jahonga mashhur ilmu-fan va hunarmandchilik markazi sifatida tanilganligi uchun bu yerga yetti iqlimdan donishmandlar kelib Ulug'bek atrofida to'planishgan savdogarlar va mashhur Samarqand qog'ozini boshqa turli hunarmanchilik buyumlarini xarid qilgani kelishgan. Barcha yo'llar esa poytaxt Samarqand shahrining savdo-hunarmandchilik va jamoat markazi hisoblangan Registonda bir biri bilan tutashgan¹³. Uzoq yillar davomida Registon o'zidagi binolarni uch marotaba o'zgartirdi. Avvalo Amir Temurning xotinlari Tuman oqi hokimligida bu yerda katta hashamatli gumbazli bosh kiyimlari sotiladigan

¹¹ Юсупова.М.А. Самарқанд тарихига назар // Мозийдан садо. – Ташкент, 2003. – № 2 (23). – С. 15-16.

¹² Содиқова. Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Ўзбекистон Фан нашриёти. -Тошкент. 1981 й. Б. 83-86

¹³ Кличев. Н. Самарқанд. Мехнат -Тошкент. 2001 й. Б 49-51.

usti yopiq tim quriladi. Ulug‘bek hukumroniligi davrida maydonda qaytadan rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bu joylar vaqfga topshirilgani uchun bozor timlari ko‘chirib olindi va boshqa joyga o‘rnatildi. Maydonning g‘arbiy qismida dastlabki bino - Ulug‘bek madrasasi qurilgan. 1424-yili Ulug‘bek madrasasi ro‘parasida “qush” uslubida Ulug‘bek xonaqosi barpo etildi. Xonaqo madrasaning bosh fasadiga qaraganda qisqaroq bo‘lgan, chunki xonaqoning janubiy-g‘arbiy qismida qadimdan ziyoratgoh bo‘lib kelgan Imom Ja‘far Sodiq mozori joylashgandi. Madrasaning keng fasadi va hashamatli minoralari ro‘parasida, peshtoq va katta gumbazli xonaqoh turgan. Maydonning shimoliy tomonida ham Ulug‘bek farmoni bilan katta hashamatli shoxona Mirzoyi karvonsaroyi qurildi. Uning joylashishi hozirgi Tillakori madrasasiga o‘xshash bo‘lgan. Karvonsaroy keng bostirma va hujralardan iborat bo‘lib, bosh yuza qismi ko‘rinishi peshtoqli va burchaklari minoralar bilan o‘ralgan bo‘lgan. 30- yillarda Shoxruhning (Amir Temur o‘g‘li) murabbiysi, ko‘zga ko‘ringan arbob Aliko Ko‘kaldosh yangi juma masjid qurdiradi. Masjid to‘g‘ri burchakli taxminan 90 x 60 m reja asosida qurilgan bo‘lib, g‘isht va tosh ustunlarga tayangan ikki yuz o‘n gumbazli galereyali uzun hovlidan iborat bo‘lgan. Masjid qoldiqlari 1936 yilda Registon xiyobonini barpo etish jarayonida topildi. Uning yonida hozirgi favvoralar o‘rnida “Masjidi Muqatta” (o‘yib ishlangan) joylashgan edi. Uni Mirzo Ulug‘bek qurdirgan bo‘lgan. Masjid devorlari va saqfi qit’a-qit’a (yog‘ochdan ishlangan bezaklar) qilingan naqshin yog‘ochlardan yasalgani uchun Muqatta’ deb atalgan¹⁴.

Bundan tashqari Registonda, Ulug‘bek madrasasi va xonaqohidan sal nariroqda bino qilingan hammom shahardagi boshqa hammomlardan tamoman ajralib turgan. Uni ham Ulug‘bek Mirzo 1424 yilda qurdirgan. Shuning uchun ham Mirzoyi hammom deb atalgan. Bu xususda “Boburnoma”da mana shunday gap bor: “Mirzo Ulug‘bek yana ushbu madrasa va xonaqohga o‘xshash bir yaxshi hammom solibdur, Mirzoi hammomiga mashhurdir, har nav toshlardin farshlar qilibdur. Xurosonu Samarqandda andax hammom ma’lum emaskim, bo‘lgay”. Ulug‘bek davrida Registon ijtimoiy

¹⁴ Дудин С. Орнаментика и современное состояние старинных самаркандских мечетей// Известия арх.ком.Вып.7.1903

hayotning markaziga aylandi. Bu erda ko'riklar o'tkazilar, davlat farmonlari o'qib eshtirilgan¹⁵.

XV asrda Amir Temurning nevarasi, ulug' olim va astronom Ulug'bek o'z nomi bilan atalgan madrasaning poydevorini qo'ygan. 1420 yilda madrasa qurilishi nihoyasiga yetganligi haqida binoning bosh ark peshtoqidagi yozuv xabar beradi. "Bu ilm binosining asoschisi ulug' sulton, sultonning o'g'li, dunyoning va asrlarning mutaffakkiri Ulug'bek Ko'ragoniy, balandligi osmonga qadar ikki o'lcham, og'irligidan yer yuzining cho'qqisi titraydi", degan so'zlar madrasa peshtog'ida yozilgan.

Ammo bu so'zlar Ulug'bek madrasasining hozirgi holatining asl nisbatlari va sifatleri haqida yetarli darajada xabar bera olmaydi. Hovli perimetri bo'ylab binoning ikkinchi qavati mavjud emasligi, Sherdorga o'xshagan baland gumbazlari yo'qligi, to'rtta minoralardan faqat ikkitasi saqlanib qolganligi, bosh peshtoq va minoralarning tojlari buzilib ketganligi sababli madrasaning oldingi holatini tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. Yuzlab yillar davomida yonidan o'tgan ko'chalarga nisbatan bino ancha cho'kgan. Hovlining sathi maydondan 2,2 metrga pastdir. Lekin, hozirgi kungacha saqlanib qolgan bino shakllari Ulug'bek madrasasining bunyodkorlari va quruvchilarining me'morchilik mahorati yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

Sirlangan guldor sapollarga berilgan naqshlar besh asrdan ko'proq vaqtdan keyin ham o'zining nafis sofligi bilan kishini maftun qiladi. Ulug'bek madrasasining me'morchilik va texnikaviy fazilatleri Sherdor, Tillakori madrasalariga nisbatan yuqori darajaga ega. Bino qismlarining mutanosibliigi juda to'liq, bejirim naqshlar ravshan qilib chizilgan va bo'yoqlar birlashmasi barkamoldir. Hovli betidagi tokchalarning ornamental o'ramalari ko'm-ko'k rang ustidan to'qyashil qo'shimchalar, havo-rang shoxchalar va oq-ko'k gullar bilan bezatilib, hayron qoldiradigan bo'yoqlar gammasini tashkil qiladi. Minoralarning tepa tomoni torayganiga qaramasdan ornamental to'rostidan ustigacha o'zgarmasdan, terrakot va sirsopol g'ishtchalar bir tekisda qatorma-qator terilgan. Bunday yuksak badiiy uslubni Sherdor madrasasi qurilishida uchramaydi.

¹⁵ Алескеров. Ю.Н. Самарканд. Издательство Узбекистана. -Ташкент.1974 й. С-153-169 .

Ulugʻbek madrasasining roʻparasida Sherdor madrasasi joylashgan, u ikki asrdan keyin qurilgan. Sherdor madrasasining ornamental naqshlari va ranglari Ulugʻbek madrasasiga yon beradi. Bu yerda och-sariq rang koʻp ishlatilgan sopol gʻishtchalarning sifati ancha pastroq.

Minora torayishida, toʻrtburchaklar tugagan joyida kesik paydo boʻlib, minora uzunligiga chok chiziq tushib qolgan. Shunga qaramay, Sherdor madrasasi ashtorxoniyalar hokimiyati paytidan qolgan tarixiy yodgorlikdir. 20 yil oʻtgach Tillakori madrasasi qurilib, Registon maydonidagi Sherdor va Ulugʻbek madrasalarini oʻz hajmi bilan bogʻladi. Tillakori madrasasi qurilishi oʻz nihoyasiga yetkazilmasdan qolgan. Qurilishdagi kamchiliklar, sirsopol gʻishtchalarning ranglari (sariq va och koʻk rang koʻp) ancha xiraligi bilan yuqorida aytilgan ikkita madrasalardan sifati pastroqdir. Maydonning toʻrt burchagida toʻrtta minora qad rostlab turibdi. Registon rang-barangligi shunaqa betakror, quyoshli kun, yoki oy chiqqan paytda naqshlarning jilosi oʻzgarib turadi. Asosan quyosh botish paytida moviy rang yarqiragay kulrangga aylanib, nurlar sopol gʻishtlarda oʻynaydi, keyin tilla-sariq rangga kirib, kechasi oy shuʻlasida qora-zangori boʻlib koʻrinadi. Farqlash qonunlari bu yerda ravshandir: vertikal chiroy hajmlari, gorizontal kulrang muhitlarga qarama-qarshi turadi, ogʻir xususiyatlar naqshlar bilan yengillashtirilib, sariqrang koʻk rang bilan keskin farqlanadi.

Shunday qilib, Registon majmuasidagi har bir bino oʻziga xos xarakterga ega ekanligini bilishimiz mumkin. Undagi bezaklarning takrorlanmasligi ham fikrimiz isbotidir.

1.3. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining me‘moriy xususiyatlari

Registondagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining tarkib topishi 1417 yilda buyuk hukumdor Mirzo Ulug‘bekning farmoniga binoan madrasa qurilishdan boshlangan. Binoning madrasa sifatida loyihasining muallifi Shoxruxning (Ulug‘bekning otasi) me‘mori zamonasining mashhur olimi Quvomiddin Sheroziy bo‘lib, Hirotidagi xonlar uchun qurilgan aksar me‘morchilik majmualari ham uning ijodiga mansubdir.¹⁶ Samarqandda qurilayotgan madrasa hamda rasadxona shaharga o‘rta asrlarda sharqdagi muhim markazlardan biri bo‘lib mashhurlikka erishishga olib keladi. Ushbu inshootning muxandisining nomi aniqlanmagan. Ammo 40 yil Toshkentda yashab o‘tgan hirotlik shoir Zayniddin Vasifiyning ma‘lumotlariga qaraganda muxandisning nomi Qozizoda Rumiyning shogirdi Kamoliddin muxandis bo‘lgan¹⁷.

XIX asr ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan Arminiy Vamberi ham o‘zining sayohatnomasida Samarqand shahridagi tarixiy binolarga alohida to‘xtalgan. Vengriyalik sharqshunos olim o‘zini hayratga solgan shahardagi Shohi Zinda ansambli, Amir Temur masjidi, Ark, Turbati Temur, ya‘ni Go‘ri Amir hamda Registondagi madrasalar qatorida Ulug‘bek madrasasiga ham to‘xtalib, uning “astronomiyani qattiq sevuvchi va shunday nomni olgan Ulug‘bek tomonidan hijriy 828 (mil. 1434 y.) da qurilgan”ligini qayd etgan. U afsus bilan 1701 yildayoq Madrasa vayron bo‘lganligini ta‘kidlab, “men bu yerda o‘zimga manbadagi so‘zlarni keltirishga izn berdim”, - deya

¹⁶ Алескеров. Ю.Н. Самарканд. Издательство Узбекистана. -Ташкент.1974 й. С-153-169

¹⁷ Крюков. К.С. Регистон. Памятник архитектуры . 4. изд. Ташкент, 1970 г.

quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Hujrada o'quvchilar o'rnida tungi boyo'g'lilar joylashgan, eshiklarga esa ipak pardalar o'rnini o'rgimchak to'rlari qoplangandi". Biroq Vamberi aynan qaysi manbadan foydalanganligi haqida ma'lumot bermagan. Bundan tashqari uning "bu binoda qurilish 1440 yilda G'iyosiddin Jamshid, Muayid Koshoniy va Salohiddin Bag'dodiy boshchiligida boshlangan va Ali Qushchi rahbarligida bitkazilgan dunyoga mashhur observatoriya joylashgandi. Bu Osiyodagi ikkinchi va so'nggi observatoriya edi¹⁸" deya ta'kidlagan fikrlari ham bir oz bahslidir. Haqiqatdan ham Ulug'bek rasadxonasi A.Vamberi ta'kidlaganidek, Osiyodagi ikkinchi va so'nggi observatoriya hisoblanadi. Biroq Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxona turli joylarda qurilgan ikkita me'moriy kompleks hisoblanib, Madrasa Samarqand markazi Registon maydonida, observatoriya esa Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida joylashganligi bugun barchaga ma'lumdir.

Ulug'bek madrasasi binoni me'morchilik asari jihatidan va sifat nuqtai nazardan ham musulmon Sharqida ana shu tipdagi binolarning klassik namoyondasidir. Ulug'bek madrasasi 1417-1420 yillarda qurilgan bo'lib, uning sathi 81x 56 metrdan iborat. Yuqorida takidlaganimizdek, XV asrda Registonda qurilgan barcha inshootlarda birgina Ulug'bek madrasasi birmuncha xaroba holida bo'lsa-da, bizgacha etib kelgan. Ulug'bek madrasasi me'morchilik jihatdan musulmon olamda ana shu turdagi binolarning kalassik namunasidir.

Madrasa ikki qavatli, 55 hujradan iborat bo'lib, to'rt burchagida to'rt darsxona va 4 qirra ayvoni ham bor. Ayvonlar yozgi darsxona vazifasini ham bajargan. G'arbdagi ikki darsxona oralig'ida uzunasiga masjid joylashgan. Uchta eshigi bo'lib, bittasi asosiy, ikkitasi hovliga olib kiradi. Asosiy sharqiy fasad maydonga qaragan bo'lib, baland peshtoqlidir. Bosh tarzning yon qanotlari, yon ko'rinishlari silliq, yirik geometrik naqshlar bilan qoplangan. Ulug'bek madrasasi naqshlarga boy chiroyli me'morchilik ko'rinishiga ega. Oddiy g'isht bilan sirlangan g'ishtlarni birga qo'shib ishlatish mozaika va o'yma marmarlar birlashib, yagona badiiylikni tashkil etadi. Naqshlardagi

¹⁸ Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. М.: Восточная литература РАН, 2003. С. 162.

yulduzsimon naqsh-nigorlar va yozuvlar Ulug‘bekning ma’rifatparvar an’analari hamda astranomiya fani homiysi, buyuk donishmandligi ifodasi bo‘lsa kerak. Ulug‘bek qurdirgan madrasa o‘z davrining ilg‘or oliy o‘quv yurti, dorilfununi va katta ilmiy muassasasi sifatida ham katta shuhrat qozondi. Ulug‘bek madrasasida nafaqat diniy fanlardan balki zamonasining barcha dunyoviy fanlaridan ham mustahkam ta’lim bergan. Madrasada ta’lim beradigan olimlarning soni 90 dan ziyod edi. Ulug‘bek madrasasining bosh peshtoqidagi tarixiy yozuvda: “Bu yer u bilan bezalgan va ko‘k uning uchun egilgan binodir. Baland bino osmondadir. Uning qurilishi siyosat va hukmda eng yaxshisi, saltanat va millatni jam qilgan. Alloh uning Yer yuzidagi xalifaligi va asarlarini abadiy aylasin!”.

Madrasaning chap va o‘ng tomonida qad ko‘tarib turgan minoralariga nazar solsak, minorani qiyshayib turganligining guvohi bo‘lamiz. Asosan buni quyosh botayotganida madrasani yonida tik turmaganini yaqqol kuzatish mumkin. Ulug‘bek madrasasini olti asr davomida 2 metrga cho‘kkan degan taxminlar bor. Har bir minoralarning og‘irligi 400 tonna bo‘lib, balandligi 33 metrdan bo‘lsa, ularning poydevori 9 metrni tashkil etadi. Har bir minoralarning ichida 56 tadan zinalari bor. Shuning uchun bu madrasani ba’zida “Minorolari cho‘kayotgan madrasa” deb yuritiladi. Aslida, ushbu minoralarni ustida sharafalari bo‘lgan ya’ni, ikkki pog‘onali bo‘lishgan. Lekin afsuski, yuqori pog‘onalari bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Demak, minoralar orqali yana ham balandga chiqishgan degan ma’lumotlar ham bor¹⁹.

Ulug‘bek qurdirgan ushbu madrasa o‘z davrining ilg‘or, oliy, barcha sharoitlarga ega mukammal oliy o‘quv yurti, Sharqdagi yirik dorilfunun va keng imkoniyatlarga ega ilmiy muassasa sifatida ham katta shuhrat qozondi. Butun dunyoda esa Ulug‘bek akademiyasi sifatida mashhur bo‘ldi. Bu fikrimizni isboti sifatida yevropalik mashhur yozuvchi faylasuf va tarixchi olim Volterning (1694-1778 yy) quyidagi fikrini keltirishni o‘zi kifoya. «Transoksianada uning (Amir Temurning) o‘rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi. Yer kurrasini o‘lchashni

¹⁹ Ремпел Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Ташкент, 1961

buyurdi va astronomik jadvallarni tuzishda ishtirok etdi». Volter haq va adolatli gapni aytgan. Haqiqatdan o‘sha vaqtlarda Samarqandda o‘ziga xos akademiya bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek atrofida uyushgan 100 dan ziyod olimni o‘z bag‘rida ko‘kartirgan (tarbiyalangan). Nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o‘tagan. Bundan tashqari Ulug‘bekning Buxoro va G‘ijduvondagi madrasalar ham Ushbu poytaxtdagi akademiya qarashli zamona dorulfununlari edi²⁰.

Ulug‘bek madrasasining kirish peshtog‘i ikkinchi qavatidagi xonalarida insoniyat taffakurini boyituvchi barcha diniy va dunyoviy fanlarga oid katta kitobxonasi mavjud bo‘lgan, buyuk Amir Temur va farzandlari tomonidan jamlangan kitoblarning ko‘pi ana shu yerda saqlangan. Ulug‘bek madrasasida barcha diniy va dunyoviy fanlardan chuqur bilim hamda ta’lim berish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Madrasada ta’lim beradigan barcha yuqorida qayd etilgan yuzdan ziyod zamonasining mashhur olimlarning ishlari uchun kerakli barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Barcha olimlar bilan Ulug‘bekning o‘zi bevosita suhbat o‘tkazgan va yaxshi ilmiy qoniqish hosil qilgandan keyin ishga qabul qilgan va undan keyin ham doimo muloqotda bo‘lgan.²¹

Madrasada ta’lim uch bosqichdan iborat bo‘lgan: birinchisi “ando” yoki “past qadam” - boshlang‘ich bo‘limi. Ikkinchisi “avsat” yoki “miyona” o‘rta bo‘lim, uchinchisi “a’lo” yoki «peshqadam» oliy bo‘lim. Iqtidorli shogirdlar bu bo‘limlarning har birida to‘rt besh yillab harakat bilan o‘qishardi. Natijada madrasada tahsil ko‘rib, uni dasturi bo‘yicha asosiy fanlarini to‘la o‘zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o‘z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga Sanad- shahodatnoma yozib berilgan. Eng muhimi va ahamiyatlisi shuki, madrasada o‘qish va o‘qitish bepul vaqfnoma orqali olib borilgan.

Mashhur olimi zamon sanalgan mavlono Muhammad Xavafiy, Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid, Mo‘nidin Koshiy madrasaning etakchi muddarislaridan bo‘lgan. Ulug‘bekning o‘zi va sevikli shogirdi Ali Qushchi ham turli fanlardan dars bergan. Madrasa tahsil ko‘rib, uning dasturi bo‘yicha asosiy fanlarni to‘la o‘zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o‘z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga shahodatnoma

²⁰ Массон.М.Е. Самарканд осори атиқаларига оид уч воқеа. Ўзбекистон.- Тошкент. 1973 й

²¹ Бартолд В.В. Улугбек и его время. Соч.т.ІІ, ч.2, М., 1964, стр.131.

yozib berilgan. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasida muddarislik qilgan olimlarning bir qismi turli fanlardan toliblarga dars berishgan hamda matematika, geografiya va astronomiya bo‘yicha amaliy masalalar bilan ham shug‘ullanganlar. Rasadxona qurilib ishga tushguniga qadar osmon yoritkichlarining holatini kuzatish ishlari ma‘lum darajada mana shu madrasada va Ulug‘bek tomonidan qurilgan Muqatta’ masjidida olib borilgan edi.

XV asrda Samarqandning ilmiy va adabiy hayot markazi sifatidagi shon-shuhrati sharqqa keng tarqalgan edi. Shaharga mashhur olimlarga emas, balki turli shoirlar kelib turishgan. Mashhur shoirlardan A.Jomiy, A.Navoiylar Hirotdan Samarqandga kelishgan va Ulug‘bek madrasasida ta’lim olishgan. 1420 yilda, olim, matematik, astronom Ulug‘bek Ko‘ragoniy say‘i-harakati bilan musulmon oliy o‘quv yurtiga asos solingan. U yerda boshqa madrasalarga o‘xshab, faqat ilohiyot fanlari o‘rgatilmagan. Ulug‘bek aniq fanlarni afzal ko‘rgan. Birinchi darslarni Ulug‘bekning ustoz, ulug‘ astronom Qozizoda Rumiya o‘tkazgan. Birinchi mudarris (professor) etib Muhammad Havodiy degan olim tayinlangan. Ulug‘bek eng mashhur ilm namoyandalarini to‘plagan. Talabalarning soni yuztaga yetgan va ular madrasa ichidagi hujralarda yashashgan.

Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasi ikki kavatli, ellik hujrali bo‘lgan. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, madrasada yuzdan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta’lim olgan. Madrasada zamonasining iqtidorli olimlaridan Mavlono Shamsuddin, Muhammad Xavafiy yetakchi mudarris bo‘lgan. Mashhur olimlardan Qozizoda Rumiya, Giyosiddin Jamshid Koshoniy hamda Mirzo Ulug‘bekning o‘zi va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars berganlar.

XVI asrning mashhur adibi Zayniddin Vosifiyning yozishicha, 1420 yilda Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Xavafiy o‘qigan. Darsda olimlardan to‘qson nafari qatnashgan, lekin darsning ma‘nosiga Ulug‘bek bilan Qozizoda Rumiya boshqa hech kim tushunmagan. Sababi, ma’ruza juda ham chuqur ilmiy asosda o‘qilgan. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, Madrasa ilmiy xay’at astronomiya darsini Qozizoda Rumiya o‘qigan. Ulug‘bek madrasasida kamida 15-16 yil tahsil ko‘rib, uning dasturi bo‘yicha asosiy fanlarni to‘la o‘zlashtirgan va imtihonli

saboqlarda o‘z bilimini namoyish qila olgan tolibi- ilmlarga sanad-shahodatnoma yozib berilgan.²²

Ulug‘bek madrasasining saqlanib qolgan qiyofasining o‘zi, o‘tmish me‘morchilik san’ati naqadar yuksak ekanligidan darak beradi. Madrasa to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lib, sathi 56 x 81 metr to‘rtburchak (chorburchak) hovlining sathi 30 x 40 metr, uning o‘rtasida sakkiz qirrali hovuz bor. Registonga qaragan tomoni bosh tomon bo‘lib, katta peshtog‘i chuqur tokchadan iborat va 15 metrli nayzasimon ark bilan yopilgan. Keyinchalik peshtoq o‘qida joylashgan bosh darvozadan yana ikki tomonidagi rovoq tokchalari o‘rtasidan ikkita egri-bugri shakldagi yo‘laklardan eshik ham o‘tkazilgan. Ikki yonboshdagi ko‘chalardan kirish uchun yordamchi eshiklar qilingan.

Binoning burchaklarida to‘rtta o‘quv xonalari mavjud. Beshinchisi cho‘zilgan shaklda bo‘lib asosiy tomonning ro‘baro‘sida joylashgan va masjid vazifasini o‘tagan. Darsxonalarga kiradigan eshiklar, tepasi yopilgan yo‘laklardan o‘tadi va hovlining to‘rt tomonida joylashadi, o‘quv xonalariga yorug‘lik kichkina oynachalardan kiradi. Oynalar binoning tashqi yuzasida joylashgan. Kirish darvozalari, ayvon va darsxonalar balandligi ikki oshyonli hujralar balandligi bilan teng.

Ikki oshyonli hujralar ichki hovlini o‘rab olib, har tomondan oltitadan tutashtirilgan, faqat birinchi qavatdagi kirish yo‘laklar to‘rtta qanos enligini egallab bu tutashuvga kirmagan. Reja tuzilishi binoning o‘qiga nisbatan simmetrik berilgan.

Yashash hujralariga kirishdagi yo‘laklarda tokchalar va peshayvonlar mavjud, xonalarning sathi 3x3,7 yoki 3,2 x4,6 bo‘lib, to‘rida yordamchi xona ham bor.

Havo va yorug‘lik xonalarga eshik orqali yoki eshik tepasidagi panjarali oynachalardan kirgan. Qish kunlari isitish uchun sandal ishlatilgan. Devorlarning qalinligi yoz kunlari issiqdan saqlab, qish kunlari issiq yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymagan, lekin zaxlikdan saqlay olmagan. Shuning uchun uxlash joylari yog‘ochdan yasalib, pastdan ikki metr balandlikda bo‘lgan. Ustiga chiqish uchun hujra ichida yog‘och zinapoya o‘rnatilgan. Ikkinchi qavatdagi hujralarga devor ichiga kirgazib g‘ishtdan

²² Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси// Мирзо Улуғбек таваллудининг 615 йиллиги ва 2009 - Халқаро астрономия йилига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари// Самарканд, 11 июнь 2009 й. Тошкент - Самарканд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2009 й. 99-103-бетлар

taxlangan o‘rama zinalar orqali chiqilgan. Ikkinchi qavatdagi hujralarni bir-biri bilan tokchasimon peshayvonlar bog‘lagan. O‘rama zinalar orqali madrasa tomiga va minora ustiga ham chiqish mumkin. Madrasa devorlari pishgan g‘ishtdan taxlanib, oralari ganch qorishmasi bilan to‘ldirilgan.²³

Bezakli qoplamaning ikkinchi uslubi sopol g‘ishtchalar terilmasidir. Bu holatda har xil badiiy kompozitsiyalar ishlatilgan. Oldindan tayyorlangan naqshlarni o‘z joyiga ganch birlashmasi bilan yopishtirishgan. Ulug‘bek madrasasining Registon tomonga qaragan yuzasi naqsh bilan, qolgan uchta tomoni yopiq bo‘lib, geometral to‘rli naqsh bilan bezatilgan. Yonboshda joylashgan kirish darvozalarini kichkina ravoqlari ustiga kamtarona naqshlar berilgan. Madrasaning to‘rt burchagiga taqab uzun bo‘yli minoralar ko‘tarilgan, ularni markazdan ozgina qiyshayib turgan sharpasi binoga yoqimli jo‘shqinlik beradi. Minoralar osti toshchalar bilan qoplangan uchburchak o‘yma marmar koshinlar bilan tugatilgan. Shu kunga yetib kelgan minoralarning chambari uch qator muqarnasdan iborat bo‘lib, hovzaklari rangli sopol taxtachalardan yasalgan.²⁴

Bosh peshtoq bo‘limlari ojiz relyefli bo‘lib ko‘rinadi. Burchaklari «morpech» (ilon tovlanishi) naqshlariga oid. Pastdagi bo‘limlar o‘yma marmar tosh bilan, arkni qolgan ikki qirralari burama hoshiya bilan bezatilgan. Bu eshilgan burama bovlik naqshdor sirsopoldan ishlanib, turli rasmdagi to‘r (ip)dan iborat. Buramani pastki qismi marmar ostonadan tizilib, u madrasa devorining pastki qismi bilan birlashtirilgan. Peshtoqni og‘ir vazni buramalarning noziklashtirilgan bo‘yinlari bilan birmuncha yengillashtirilgan. Peshtoqni yon tekisliklari bo‘linmalar ichra geometrik naqsh gultaxtalaridan yasali sirsopol g‘ishtdan terilgan. Ark tepasidagi peshtoq rasmlari o‘ta nozik, badiyan serzavq, guldor qadama yulduzsimon naqshlar bilan bezatilgan. Peshtoq arki va yon tekisliklari o‘rtasida tepadan pastga qadamalardan terilgan iboralar ikki keng tasma bo‘lib tushib keladi. Katta ark ortidan uchta kichik hajmdagi arklar keladi. Madrasaning asosiy kirishidagi o‘rta ark o‘ta boy ishlangan va bu yerda sirsopol

²³ Васильцов К. Цвет в культуре народов Средней Азии// Центральная Азия. Традиция в условиях перемен. Сборник статей. СПб., 2007.

²⁴ Г.А.Пугаченкова, Р.И.Ремпел “Вдэющиэся”памятники архитектуры Ўзбекистана., Тошкент 1958 й. Б-128-130

qadamalardan butun devorlar tekisligi boʻrtma marmar oʻrindoshlari bilan (150 dona) qoplanib, ular beshqirrali yulduzlar va qaldirgʻoch dumi shaklida naqshlangan.

Biron bir oʻrindoshdagi surʻat qaytadan qaytarilmagan. Qolgan ikki ark asosiy arqdan bir necha bor kichik. Ular madrasaning yordamchi yonbosh kirish joylari boʻlib, betakror darajada boy ishlangan. Bu arklarni oʻng devorlari xuddi shunday gʻisht va sirsopol gullik oʻrindoshlardan gilamga oʻxshagan tasvirda yaratilgan. Ulugʻbek madrasasining rangdor ohangi kulsimon sariq gʻishtlar ustidan, koʻkish binafsha geometrik chiziqlardan boʻlgan naqsh va ularning orasidagi feruza rangli toʻldirmalardan iborat. Onda-sonda oqish oʻrindoshlar, oq harflar uchraydi.

Asosiy kirish joyining naqshlarida yashil, qora, sariq, jigar ranglar va kulrang ishlatilgan. Darsxona va xususan ichki xonalardagi bezak izlari qolmagan. Bularning hammasi ganch bilan suvalgan va koʻp marotaba oqlangan. Taxmin qilish mumkinki, xonalarning ichki bezagi yelimli boʻyoqlar bilan ishlangan. Hovli sahni katta toshtaxtalar bilan qoplangan, tom yuzasiga pishgan suvbardosh kuydirilgan ganch qorishmasi asosida pishgan gʻisht bilan qoplangan. Yomgʻir suvlari koʻcha tomonga choʻzilgan uzun tarnovlar orqali tushirilgan. Demak, Ulugʻbek madrasasining meʼmoriy xususiyatlari shulardan iborat.

II BOB. MIRZO ULUG‘BEK MADRASASINING BEZAKLARINI TA‘MIRLASH JARAYONI VA LOYIHASI

2.1. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining ta‘mirlash ishlari tavsifi

Hozirgi kunda mustaqil Respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ularni tiklashga katta ahamiyat berilishi, shaharsozlik yodgorliklarda xalqimizning o‘tmish tarixi, ilm-fan taraqqiyoti, madaniyati aks etgan manbalarni va arxiv materiallarini chuqur tahlil qilish hamda obidalarda olib borilayotgan bir qancha ishlarni kuzatib chiqish va bu me‘moriy obidalarni kelajak avlodga yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

YUNESKOning qarori bilan 2001 yil – Samarqand shahrining tarixiy qismlari YUNESKOning umumjahon madaniy me‘ros ro‘yxatiga kiritilgan. Unda dunyodagi 40 ta ochiq osmon ostidagi muzeylar sirasiga kiritilgan bo‘lib, undagi durdona me‘moriy obidalar ma‘naviy va moddiy boyligimizni namoyon etishi va ularni konservatsiya qilish masalalari keng ko‘lamda ko‘rib chiqildi.

Shu xususda gap ketar ekan Registon maydoni va ulardagi bir birini takrorlamaydigan madrasalari necha yillardan beri ta‘mirlanib kelmoqda.

Registonda 1417-1420-yillarda qurilgan Ulug‘bek madrasasidan 1752-yilda Amir Muhammad Rahim davriga kelib non ombori sifatida foydalanishgan. Keyinchalik XIX asrga kelibgina Ulug‘bek madrasasi yana talabalar bilim olishi maskanida aylantirilgan. Aynan mana shu davrda hovlidagi tashqi ayvonchalarni ta‘mirlash ishlari olib borilgan. 1907-yilda zilzila oqibatida hovlidagi ayvonlarning deyarli xammasi shikastlangan. Shu yilda zararlangan joylarni ta‘mirlash uchun maxsus komissiya tuzilgan. Unga rahbar

qilib Vыtkia V.L tayinlangan edi, ammo uning rahbarligi ostidagi guruhning samarasiz bo‘lgan²⁵.

Ulug‘bek madrasasi yopiq to‘rtburchakli hovli bo‘lib orqasida masjid va xonaqo bo‘lgan. Ansamblning to‘rt burchagida to‘rtta minora bo‘lgan. Hovlining atorifida hujra bo‘lib ulardan yuzdan ortiq madrasa talabalari yashaganlar. Boshlang‘ich ko‘rinishda Ulug‘bek madrasasi xonaqolar ustiga o‘rnatilgan. To‘rtta gumbazdan va ikki qavatli binodan iborat bo‘lgan. Madrasa maydonga ulkan ark ko‘rinishida qaratilgan. Ularning qolgan uchta tomoni xam o‘qsimon ark bilan bezatilgan. Orqa portal minoraning kirish qismidir. Portallar-ushbu inshootlarning eng ajoyib elementlari hisoblanib bezak vazifasini bajargan, inshootga ulug‘vorlik baxshida etgan. Bu ulug‘vorlik juda oddiy usul bilan eshik o‘yiqlarini katta qilib ko‘rsatish bilan amalga oshirilgan.

Inshoot odamda nafosat va yengillik hislarini uyg‘otadi. Devorlarda releyef bezaklari va uning qalinligi ishora qiladi, bazida bu narsa yo‘qqa chiqadi geometrik bezak ornamentlari arkning bezak pannosi, devorning ko‘k, havorang bezaklari insonlarning binoning og‘ir g‘isht qatlamlaridan iborat ekanligi haqida o‘ylantirmaydi.²⁶

Ulug‘bek madrasasi yillar to‘foni, zilzila va ayniqsa XVIII asrdagi jangu-jadallar ta’siridan ancha talofat ko‘radi. Tashqi minora, gumbaz, ikkita minora va bir necha turar joylari vayron bo‘lgan. 1918-yil Bukinist kitob jildlovchilar birinchi bo‘lib shimoliy sharqiy minoraning og‘ayotganini, har kuni bu minora asosiy binodan ajralib qiyshayayotganini sezishadi. Aniq ediki agar chora ko‘rilmasa minora vayrona bo‘lar edi. Minorani o‘zlarning do‘konlari ustiga qulashidan qo‘rqib bu ma’lumotni Samarqandning muzeylarini va qadimiy yodgorliklarini himoya qilish bo‘yicha qo‘mitasi xodimi V.L.Vyatkinni xabardor qilishga qaror qiladi. V.L.Vyatkin Samarqanddagi yodgorliklarni qo‘riqlash bo‘yicha mutaxassis edi. Bu qo‘mita tomonidan 1920-yil may oyida Samarqanddagi qadimiy yodgorliklarni qutqarish va restavratsiya qilish bo‘yicha maxsus komissiya “SamKomistaris” ish boshladi. Komissiya tarkibi uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, qurilish, badiiy va arxeologik

²⁵ Бартолд.В.В. Улуғбек и его время. Ташкент. 1915 г.

²⁶ Массальский.В.И. Туркестанский край, 19 том. Ташкент. 1913 г.

yoʻnalishlarda boʻlgan.²⁷ Vaqtinchalik minorani qutqarish uchun uni yogʻoch karsset bilan oʻrab qoʻyadi. 36 tonnali 24 ta poʻlat arqon bilan minorani shimoli-sharqiy podium tomonga yogʻoch langarlarga mahkamlab qoʻyiladi. Buning natijasida minora ogʻishdan toʻxtab normal holatidagi 108 belgida toʻxtaydi.

Yodgorlikni saqlab qolishning muhimligi haqida M.E.Masson shunday deydi: “Komissiya aʼzolari mashhur Ulugʻbek madrasasining katta ilmiy va badiiy mazmunga ega ekanligini va uning fasadi bitta minorasiz yomon koʻrinishga ega boʻlishini tushunishadi. Shusiz ham 1870-yilda 4ta minoradan 2 tasi birin ketin qulab tushadi”.

Minorani tiklashning ikkita yoʻli koʻrib chiqiladi. Muhandis B.N.Kastalskiy minorani gʻishtlarini yigʻib qayta tiklashni aytadi. Viloyat arxitektori M.F.Mauer bunday resatavratsiya qadimiy yodgorlikni vayron qiladi degan fikrni ilgari suradi. Uning oʻrniga hech qanday qiymatga ega boʻlmagan inshoot vujudga keladi. Ikkinchi usul esa M.F.Mauer tomonidan ilgari suriladi bu usul minorani asosiy binodan ajratib ogʻdirib yana joyiga qoʻyishdan iborat edi. Bu ikki muxandis oʻrtasidagi bahs uzoq davom etadi. 1920-yil 5 iyunda M.F.Mauer tomonidan tezlik bilan ishga kirishishi talab qilindi. Komissiya texnik qurilish boʻlimiga minorani tiklash va uni hech bir navbatsiz amalga oshirishni yukladi.

B.N.Kastalskiy va M.F.Mauer oʻrtasida bahslar komissiyaning har bir yigʻilishida davom etganidan markazdan, Toshkentdan texnik konsultantlar taklif etildi. Ularni koʻproq Mauerning fikrlari qoniqtiradi. Mauer katta tadqiqot ishlarini olib borish uchun madrasa haqidagi qoʻshimcha maʼlumotlar toʻplaydi va fors tilini oʻrgana boshladi.

Mexayl Federovich Registonda shaxsan madrasaning arxitektura oʻlchamlarini tekshiradi va poʻlat tros arqonlar bilan bogʻlangan minoraning holatini koʻzgan kechiradi” deb yozadi M.E.Masson oʻsha yillar haqida

M.F.Mauerning taklifiga muvofiq Moskvada yodgorlikni qayta tiklash boʻyicha ikki martta loyiha koʻrib chiqiladi. Birinchi loyiha maʼlumotlar toʻliq boʻlmagani uchun

²⁷ Плетнев. И.Е. Обаснавание к проекту реставрации соффитов главного портала Улугбека. Ташкент. 1920 г.

qoldiriladi. Ikkinchi marta esa loyiha ilg‘or rus muxandisi Vladimir Grekorovich Shukov tomonidan tuziladi, Mauer bu loyihani Shukov bilan kelishgan holda taqdim etadi.²⁸

Shabalovkadagi radiominora, GUMning bezakli gumbazlari, Metropol, Petrov passaji va bir necha ajoyib binolar aftori, har doimgidek vazifani noan‘anaviy yechimini topdi. Bu g‘oya juda sodda edi. Umumiy ko‘rinishda bu shunday edi: 37 metrlik balandlikka va 2,5 tonna og‘irlikka ega bo‘lgan minora negiziga xodalar kiritib og‘ayotgan tomonini rechaklar yordamida ko‘tarish. Minorani tiklanganda hosil bo‘lgan bo‘shliqni biton bilan to‘ldirish taklifi kiritildi. A.V.Kuznetsovning ko‘rsatma berishga bu fikr kutilmagan va bajarib bo‘lmaydigan edi. Lekin Shukov minorani ko‘tarishdan ko‘ra tushirish osonroq ekanligini isbotlab berdi, chunki tushirish inshootning o‘z og‘irligi evaziga bajarilishi tashqi yordam ishlatilmasligi aytib o‘tiladi. Ikkinchi usul minorani har qanday atrof ta‘siridan qo‘riqlash ko‘rsatildi. G‘oya amalga oshirishga kiritildi.

1927-yilda M.F.Mauer loyihasi bo‘yicha V.G.Shukovning boshchiligida Moskvaning “Mostet” zavodidan metall konstruksiyalari yasaldi va Samarqandga yuborildi. Bu konstruksiyalar minoraning asosiga mahkamlanishi zarur edi. Konstruksiyalarni ko‘zdan kechirgan Mauer ulardagi xatolarni belgilab, “bu xatoliklar vazifani bajarish halokatga olib kelishini” aytdi. Buning natijasida u Moskvaga qaytib borib, qo‘yilgan xatoliklarni bartaraf etishga erishdi. 1931 yilga kelib minoraning og‘ishi 5,1 ga ko‘paydi, u uni vayron bo‘lishi xavfini ko‘rsatar edi. Minoraning og‘irlik markazi gorizontal tekislik yuzasidan fundament o‘qiga nisbatan 1055 mm siljigan. Zudlik bilan ishni boshlash lozim edi. Shuxov loyihasi bo‘yicha ishlar boshlanib ketdi.

Minoraning asosidagi o‘n beshta xoda ustunlarni olib tashlashdan oldin belgilangan marradan yuqoriroqda temir alibastor quyib mahkamlash zarur edi. Ushbu material sinovdan o‘tgan. Xodalar kvadrat quti ko‘rinishidagi konstruksiyaga mahkamlangan edi. Konstruksiya minoraning korpusini o‘rab olgan har bir olib

²⁸ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинение, Т.II. ч. 1. 1963. – С. 167-433.; Семёнов А.А. Некоторые особенности материальной культуры прошлых эпох Средней Азии // Известия Средазкомстарис. 1928. Вып. 1. – С. 11-13.; Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1958.; Его же. Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. – Ташкент: Фан, 1962. – 112 с.

tashlangan xodalar temir alibastor qorishma orasi 2-4 sm. Bu oraliq suv bilan aralishtirilgan kley bilan to'ldirib boriladi. Keyin xodalarni og'ib ketishdan saqlash uchun ularni mahkamlash lozim edi. Har bir posongi uzunligi 1275 mm, qalinligi bir tarafi 89,2 mm, ikkinchi tomonida 147 mm og'ir mahkamlangan xodalar progonlarga borib taqaladi. Bosimning bir tekisda taqsimlanishi uchun posonli ostiga qalin svinets yo'l o'tgan.²⁹

Minorani og'ib ketishini oldini olish va xavsizlikni ta'minlash uchun posongilar tomonlariga (slindr yuzaga) ponalar qoqildi. Bu ponalar slindir yuzaga ega po'lat yostiqlardan iborat edi. Bu yostiqlar yangi joylarga o'tkazib turiladi. Chetki yostiqlar qayrag'ochdan yasalgan, chunki qayrag'och emandek mustahkam hisoblanadi. Konstruksiyalarning barcha elementlari aniq hisob-kitob bilan yig'ilgan. Minoraning aylanishi tros-arqonlar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Minoraning bezaklari buzilmasligi uchun ular ostiga yumshoq daraxt yotqizildi. 1932-yil 11 martda V.G.Shuxov Samarqanddan Mauerdan xat oladi unda aytilishicha minoraning tiklanishi tugallandi va u siz loyihalashtirgan xodalar tizimi konstruksiyasi yordamida ustunlarga mustahkamlangan deb fotosuratlarini ilova tarzida kiritib o'tilgan edi. Shu tarzda madrasaning minorasi yana avvalgi holatiga keltirilgan edi.³⁰

Ulug'bek madrasasining hujralarning bir qismidagi kirish arkasi mozaikali ornament bilan bezatilgan, bu ornamentlar sopol plitalarga ishlangan. Bu naqsh 1965-yildagi qayta ta'mirlash jarayonida qayta tiklangan. Ko'k fondagi bejirim naqshlar oq rang va ko'k ranglar uyg'unligida ajoyib go'zallik kasb etadi. Uning markazida medalion joylashgan. Medalionning markazida esa yashil fonda oq lotos guli tasvirlangan, uning chetlari reliefli g'ishtlar bilan chegaralangan. Uning bezaklari ranglarini tiniqligi va tozaligi bilan boshqa bezaklardan ajralib turadi.

Asosiy partaldagi ornamentlardagi 5 qirrali yulduzlardan foydalanilgan ularning texnikasi hozirgacha sirligicha qolmoqda. Portalning yuqorisidagi mozaykali panolar rang tasvir uslubidagi ko'plab o'simlik ornamentlaridan foydalanishgan. Bu mozaykalar

²⁹ Бартолд, В. В. Улугбек и его время. Ташкент. 1915 г.

³⁰ ЎЗРМДА, С-68-65/А-90-фонд, Албом Фотоиллюстрации. Медресе Улугбека в. г. Самарканде. 1994 й.

marmar toshlardan o‘yib ishlangan. Bu ham Ulug‘bek madrasasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Madrasadagi eng katta ta‘mirlash ishlari 1952-yilda olib borilgan, bunga ko‘ra binoning pilonning mustahkamlanishi, asosiy porlatning qayta ta‘mirlanishi, hovlidagi arkalarning ko‘chib tushgan joylarini to‘g‘irlash va binodagi kichik ta‘mirlash ishlari ham to‘laqonli ravishda olib borilgan.

1967-yilga kelib esa Gendel loyihasi asosida madrasaning sharqiy-janubiy minorasi qayta ta‘mirlangan. Bunga ko‘ra minoraning asosini mustahkamlab, uning shikastlangan qismlarida konstruktiv ishlar amalga oshirilgan. Ulug‘bek madrasasining katta peshtoqining ichida belbog‘lar mavjud, buning qoyilishining sababi binoning ikkinchi etaji qulab ketadi va uning ikki tomonidagi qovirg‘ali gumbazlari umuman yo‘q bo‘lib ketadi va shundan so‘ng katta ravoqli peshtoq o‘zini ushlolmay ag‘darilib ketadi. Peshtoqning qulab ketishini oldini olish uchun ortasidan troslar bilan tortib qo‘yilgan.³¹ 1977-yil oktabr oyiga kelib, Ulug‘bek madrasasi binosining asosiga suv sizib o‘tishi sababli uni ta‘mirlash ishlari olib borilgan. Bunga ko‘ra muhandislarga binoning g‘arbiy devor qismining asosini ta‘mirlashni vazifa qilib berilgan edi. Ayniqsa g‘arbiy qismning shimoliy-janubiy qismi haddan ziyod yaroqsiz holatga tushib qolgan edi. Asosning zararlangani sababli shimoliy-sharqiy hamda janubiy-sharqiy minoralarni to‘g‘irlash ham zarur bo‘lgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, Ulug‘bek madrasasining qayta tamirlash uchun reja ishlab chiqilgan, bunga ko‘ra: birinchidan, madrasaning barcha hududida havo aylanishi uchun maxsus moslamalar o‘rnatilishi; ikkinchidan bu moslamalar yordamida nam tortgan joylarni quritish; uchinchidan, ta‘mirlashda ham zamonaviy ham an‘anaviy uslublardan foydalanish kabi bir qator rejalar asosida ta‘mirlash ishlari olib borilgan. Devorlarning tashqi qoplamiga keladigan bo‘lsak, uni ta‘mirlashda har bir xudud sinchiklab o‘rganib chiqilgan.³² Shundan so‘ng 1977-yilga kelib tashqi qoplamini butunlash qaytadan ta‘mirlandi. Peshtoqning konstruktiv qo‘yilgan bezaklari yozuv

³¹ Массон.М.Е. Регистон и его медресе. Самарканд. 1929 г.

³²ЎзРМДА, С-89-63/Ш-69-фонд, Медресе Улугбека в.г. Самарканде. Книга А. 1-1. Тошкент.1992 й

qismi bilan teng joylashgan bo‘lib, u ham yozuvlar bilan birgalikda ko‘chib ketgan va 35-40 % joyi qayta ta’mirdan chiqqan. Madasaning janubiy piloni yuqori qismi yaxshi saqlangan lekin pastki qismining marmarlari butunlay qaytadan almashtirilgan. Madrasa peshtoqining oldingi qismi restavratsiya qilingan shundan pastki qismi butunlay, peshtoqning yuqori qismining mozaykali qoplamasining 30 % qismi qayta ta’mirlangan. Shimoliy tomondagi devorning old qismi janubiy qism kabi ta’mirtalab ahvolga kelib qolgan.

Ulug‘bek madrasasining asosiy portalidagi yo‘qotishlar:

- arab yozuvlarining 95 % yo‘qotilgan
- kallonalarni ustki qoplamining 50 %
- devorning old qismidagi arab yozuvlarning 50%
- dekorativ arkalarining 75 % qayta tamirlandi.³³

Shimoliy hovli fasadining sharqiy qanotida faqatgina birinchi qavatigina saqlanib qolgan edi. Tashqi qoplamning deyarli barcha qismi qaytadan rekonstruksiya qilingan.

Shunday qilib, Ulug‘bek madrasasida yillar davomida turi zilzila va suv toshqinlari va namgarchilik sabab kichik kichik konstruksiv ishlar amalga oshirilgan. Mustaqillik yillariga kelib madrasaning deyarli barcha joylari qayta tamirlanadi. 2011-12 yillarga kelib madrasaning g‘arbiy-shimoliy tomon gumbazlari tiklangan. Bu gumbazlar ikki gumbazli bo‘lib, birinchi gumbaz va uning ustida ikkinchi gumbaz bo‘lgan ularning oralig‘i 10 metr bo‘lgan.

³³ ЎзРМДА, С-68-65/А-90-фонд, Албом Фотоиллюстрации. Медресе Улугбека в.г. Самарканде. 1994 й

2.2 Mirzo Ulug‘bek davridagi inshootlarining badiiy bezaklari

Temuriylar davrida asosiy arxitektura imoratlarini tashqi va ichki bezaklarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu davrda O‘rta Sharqda koshinkoriy bezaklar yuksak darajada rivojlangan. XIV–XV asr obidalarida bezaklarning tekis yuzalarga va hajmlarga mosligini ko‘ramiz. Ularning naqshinkor qurilmalari arxitekturaviy shakllarni idrok qilishga yordam bersa, rang-barangligi shakllar ko‘rinishini yanada kuchaytiradi. Temuriylar davrida rangli koshin bezaklarining turli xillari izlandi va yaratildi. O‘sha davr arxitekturasida asosan ko‘k, moviy va oq sirli g‘ishtlar tekis yuzalarni bezatishda ko‘proq ishlatilgan. Shuningdek, och ko‘k, moviy, oq, sariq, qora kabi ranglardan devor naqshlarini ishlashda keng foydalanilgan. O‘ymakor koshinlarni yaratishda esa ko‘k, moviy, oq, kamroq yashil, sariq, qora, ba‘zi joylarda qizil va tillo hal ranglardan keng foydalanilgan. Imoratlarni bezatishda ba‘zida marmar plitkalar ham qo‘llanilgan. Koshinkor mozaika bezaklari temuriylar davlatiga Erondan kirib kelgan va keng yoyilgan. Ular bu yerda oldingi davrlarga o‘xshab geometrik, epigrafik va o‘simliksimon motivlarning sintezlashgan ko‘rinishida namoyon bo‘lsada, yangi badiiy sifatga ega bo‘lgan.

Girix – geometrik naqsh hisoblanib, uning kelib chiqishi o‘rta asrlarda matematikaning ravnaq topishiga bog‘liq bo‘lgan. Bu bezak XI–XII asrlarda Sharqda keng rivojlangan. Temuriylar davrida girix yana ham mukammalroq darajada ishlanib, uning turli xil yangi qurilish uslublari yaratilgan. XIV–XV asrlarda girix naqshlari katta ko‘lamdagi tekis yuzalarda, minoralarda, peshtoqlarning old va yon yuzalari, ravoq osti

tekisliklarida keng qoʻllanilgan. Gʻishtlarning terilish texnikasining oʻzi girih naqshlarini keltirib chiqargan. Tekis yuzalarda ular koʻpincha vertikal va gorizontal oʻqlarga parallel ravishda olinmasdan, balki koʻproq 45 gradus burchak ostida ishlangan. Minoralar ham shu tarzda bezatilgan. Agar biz aksariyat minoralar yuqoriga qarab ingichkalashib borishini eʼtiborga olsak, bu bezaklar minora shaklini yana ham yuqoriga qarab oʻsish joʻshqinligini oshirgan.

Mirzo Ulugʻbek davri inshootlarida meʼmoriy bezaklar Amir Temur davridagi xususiyatlarni davom ettiradi. Mazkur inshootlarning bezaklari oddiyligi bilan ajralib turadi. Ammo ularda asosiy rang xususiyatlari mujassam boʻlgan. Bezaklar asosan charxlangan gʻisht va tomonlari moviy, koʻk, oq, qora naqshlar bilan qoplangan gʻishtlardan iborat boʻlgan. Aynan ulardan girix kabi shakllar va kufiy yozuvlar tashkil topgan. Devoriy bezaklar, ravoqlar qanoslari, karnizlar koʻp rangli sirli koshinlar va oʻymakor naqshlar bilan toʻldirilgan. Yuqoridagi tashqari, ularning ranglari shuningdek sariq va yashil, baʼzida qizil va tillo rang bilan toʻldirilgan. Naqshlar asosan yulduzsimon girihlar, islimiy bezaklar va sulsiy kabi nodir yozuvlarni oʻz ichiga olgan. Mazkur bezaklar tarzlarda, baʼzida interyerlarning panellarida yoki mehrob taxmonlarining bezagida mujassam boʻlgan.

Mirzo Ulugʻbek yaratgan masjid, madrasalar, xonaqoh, rasadxona, hammom, bogʻ-saroylar, maqbaralarga boqsak oʻsha davrda tasviriy va naqqoshlik sanʼati naqadar darajada rivojlanganligini koʻramiz. Tarixiy obidalarimizning maʼnaviyatni oshirishdagi oʻrni juda ham katta boʻlgan. Ularning tarz bezaklarida shu qadar maʼnoli hikmatlar va oyatlar yozilganki, har bir inson ularni oʻqib oʻziga maʼnaviy ozuqa olishi mumkin boʻlgan.

XV asrning 1-yarmi arxitektura yodgorliklari peshtoqidagi yulduzsimon naqshlarning shakllanishini kuzatish mumkin. XV asrning 1-yarmida Movarounnahrda ilm-fan ancha ravnaq topgan davr edi. Maʼlumki arxitekturaning matematika bilan bogʻliqligi juda muhimdir. Yaʼni mukammal arxitekturaning yaratilishi aniq matematik hisob-kitoblar natijasidir. Oʻrta asrlarda yetuk matematiklarning ijodlari arxitekturaning rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshgan. Bu yerda Mirzo Ulugʻbek rahnamoligida bir qancha

olimlar yashab ijodiy faoliyat olib borishdi. Ulardan biri buyuk matematik olim Jamshid Koshiy bo‘lib, uning Miftox al-hisob” – “Hisob kaliti” nomli asari diqqatga sazovordir. U besh kitobdan iborat bo‘lib, arxitektura tarixi, nazariyasi va amaliyoti sohasiga bevosita to‘rtinchi kitob taalluqlidir. Bu kitob “O‘lchovlar haqida” deb nomlanib, geometrik hajmlar va maydonlarni o‘lchashga bag‘ishlangan. Kitobning oxirgi uncha katta bo‘lmagan to‘qqizinchi bo‘limi arxitektura nazariyasi nuqtai-nazaridan ancha qiziqarlidir. U bino va qurilmalarni, arxitektura qismlarini o‘lchashga bag‘ishlangan. Fanda bu bo‘lim ravoq va gumbazlarni o‘lchash yo‘llari, muqarnas yuzalarini topish bo‘yicha mashhurdir³⁴.

Markaziy Osiyoda L.I.Rempel, Sh.E.Ratiya va V.L.Voronina arxitekturada uyg‘unlik masalalari va shakllar mutanosibligining birinchi tadqiqotchilaridandir. Ulardan so‘ng O‘rta Osiyoda M.S.Bulatov, P.Sh.Zohidov, K.S.Kryukov, G.A.Pugachenkova, I.E.Pletnev, V.M.Filimonov, M.Q.Ahmedov va A.S.O‘rolovlar shu sohada izlanishlar olib borishgan. Bu olimlar arxitekturada geometrik uyg‘unlashtirish va shakllar mutanosibligining mavjudligini isbotlashgan.

XIV-XV asrlarda obidalarni bezatishda girix naqshlaridan keng foydalanilgan. Bu naqsh bo‘yicha birinchi tadqiqotchilardan biri G.I.Gaganovdir. U geometrik naqshlarning qurilish uslublarini ochib berishga harakat qilgan. Olim P.Sh.Zohidovning fikrlaricha, girix naqshlarini yaratishda me‘morlarning asosiy mavjud uslublaridan biri – bu qog‘oz buklash yo‘li bo‘lgan. Qog‘ozni ikkiga buklash va yana o‘z holiga qaytarish orqali to‘g‘ri chiziq hosil bo‘lishi va boshqa shu kabi ko‘pgina misollarni ustoz keltirib o‘tgan.

Mirzo Ulug‘bek astronomiyaga qiziqqanligi sababli o‘zi qurdirgan obidalar peshtog‘ini bezatishda osmon jismlari, ya’ni katta-kichik 5, 10 va ko‘p qirrali yulduzlardan foydalangan. Bunday bezaklarni biz Samarqandda – Mirzo Ulug‘bek madrasayi-oliyasi va Shohi zinda majmuasiga kirish qismida, Toshkentda – Zangi ota maqbarasida, Shahrisabzda – Ko‘k gumbaz masjidida ko‘rishimiz mumkin. XV asrning

³⁴ Зоҳидов П.Ш., Пулатов Х.Ш. Мукарнас в архитектуре Узбекистана (X-XX вв.), рукопись. -Т.:2002, 15-бет.

1-yarmida Ko‘k gumbaz masjidida qo‘llanilgan yulduzsimon bezaklarni keyinchalik XVI asrlarda qurilgan Toshkentdagi Ko‘kaldosh va Buxorodagi Mir Arab madrasalarida ham uchratishimiz mumkin. Faqatgina bu obidalar peshtog‘i qanosida Ko‘k gumbaz masjididagi yulduzsimon bezaklar 90 gradusga burilib ishlangan. Mirzo Ulug‘bekgacha muqarnas bezaklarida ishlatilgan tarhiy yulduzsimon bezaklar bu davrda tarziy bezaklar qatoriga qo‘shildi.

Ma‘lumki, o‘rta asrlarda obidalarni yaratishda “oltin nisbat” deb ataluvchi qonundan keng foydalanilgan. Qadimda me‘morlar bu nisbat yordamida obidaning eni, bo‘yi va balandliklarini topishgani hozirda hech kimga sir emas. Shuningdek, bu nisbat turli geometrik naqshlarni yaratishda ham qo‘llanilgan. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, 5 va 10 qirrali yulduzsimon naqshlarni yaratishda oltin nisbatdan ham foydalanilgan bo‘lishi mumkin

Bu davr arxitekturaviy yodgorliklarini bezatishda yulduzsimon naqshlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular binolarning asosiy kirish peshtoqlari qanosini juda ajoyib tarzda bezab turgan.

Mirzo Ulug‘bek madrasasi 2 qavatli, to‘g‘ri to‘rtburchak tarxli 56x81 metr o‘lchamga ega. Bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravoq balandligi 16,5 m, uning 2 yonida guldastalar balandligi 32 metr bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklari o‘ziga xosdir. Guldasta tepasi muqarnas, sharafalar bilan yakunlangan. Peshtoq ravog‘i cheti morpech shaklida, tokchasidagi namoyonlar o‘ziga xos uslubda pardoqlangan. Peshtog‘i, guldastasi va tashqi devorlarida girih naqshining turli betakror namunalari aks etgan. Ganchkori panjaralar orqali xonaga yorug‘lik tushib turadi. Moviy va ko‘k koshin hamda sopol gishtlar vositasida Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi geometrik naqshlar bilan bezatilgan devor satqi yozuvlar bilan o‘zaro uyg‘unlashib, ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

Xonaqoh va ba‘zi hujralar ichkarisi naqshin bezaklar bilan pardoqlangan. Bezaklari orasida kufiy va suls yozuvlari uchraydi. Vayron bo‘lgan 2qavati, qiyyshaygan guldastasi, devorlaridagi kuchib ketgan bezaklar qayta tiklangan (1936), V.Shuxov va

M.Mauerlar loyihasi asosida shimoliy-sharqiy minorasi ta'mirlangan (1932). E. Gendel qiyshaygan minorani o'z holiga keltirgan (1965). Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, ta'mirlashda A. Umarov, Sh.G'afurov, K.Jalilov, I. Shermuhamedov, A. Quliev kabi ustalar qatnashgan. Madrasaning me'moriy shakli, tuzilishi jihatidan O'rta Osiyo me'morligida shu turdagi binolar orasida eng mukammal yuksak san'at namunasi hisoblanadi.³⁵

Demak, xulosa qilib aytganda Mirzo Ulug'bek davri ayrim bezaklari oldingi davr bezaklaridan farq qilib osmon jismlari shaklidan kelib chiqqan holda yaratilganligi keltiriladi. Asosiy peshtoq qanoslaridagi yulduzsimon bezaklar bunga misol bo'ladi. XV asrning 1-yarmida Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan obidalarda polixromli (rang-barang) va bir rangdagi bezak unsurlari bir-biriga uyg'un tarzda qo'llanilganligi, shuningdek O'zbekistonning tarixiy shaharlari istiqlol yillarida o'z qiyofasiga qaytarilayotganligi ta'kidlanadi.

³⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси// www.ziyouz.com кутубхонаси.,7-Том., -79-б

2.3. Madrasaning hovli peshtoqi bezaklarining loyihasi va ashyodagi ishlar tahlili

XIX asrga oid yurtimiz hududidagi meʼmorchilik bezaklarini tahlil qilish va ularni oʻzaro taqqoslash maqsadida tadqiq qilish jarayonida oʻxshama (analog)lardan foydalaniladi. Oʻxshama yordamida Mirzo Ulugʻbek madrasasining ichki peshtoq qismining dastlabki yoki undan keyingi qiyofalari aniqlanadi. Yaʼni oʻxshama nafaqat dastlabki qatlamni oʻrganish uchun, balki keyingi qatlamlarni oʻrganish uchun ham qoʻllaniladi. Oʻxshama vositasida muayyan yodgorlikning tarixidagi oʻrni va roli aniqlanadi. Oʻxshama dastlabki taxmin (ishchi faraz) qilish imkoniyatini beradi. Oʻxshama yordamida naturadagi tadqiq maʼlumotlarini, masalan kichik bir qoldigʻini, talqin qilish imkoniyatini beradi. Bunda qoldiq baholanadi, butun unsur qiyofasi aniqlanadi. Oʻxshama taʼmirlash tarixining dastlabki davrlarida namuna vazifasini oʻtagan. Oʻxshamaga qarab taʼmir ishlari bajarilgan. Hozirgi vaqtda oʻxshama grafik rekonstruktsiyadagina keng qoʻllaniladi. Taʼmir loyihasini yaratishda oʻxshama va grafik rekonstruktsiya asosiy uslub emas, balki yordamchi uslubdir. Hozirgi asosiy uslub arxeologik taʼmirlashdir. Oʻxshamalarni oʻrganish yoʻllari koʻp. Avvalo, oʻxshamalarning doirasi (soni) aniqlanadi. Bularni aniqlashda quyidagi besh asosiy omillar taʼsir koʻrsatadi: birinchidan, vaqt omili oʻxshamaning qurilish vaqti taʼmirlanuvchi bino kabi boʻlishi kerak. Keyingilari ham boʻlishi mumkin. Masalan, biz tadqiq etayotgan obʼyekt Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasi uchun keyingi vaqtda qurilgan Sherdor madrasasi oʻxshama sifatida qabul qilinishi mumkin. Ikkinchidan maktab omiliga stilistik yoʻnalish, meʼmorchilik mak- tabi, qurilish ustaxonasi muayyan meʼmorlarga tegishli omillar nazarda tutiladi. Uchinchi tipologik omil boʻlib, yodgorlik qaysi bino tipiga kirsa, shu bino oʻxshamalaridan foydalaniladi, toʻrtchisi qoʻyilgan vazifa omilida bir yodgorlik uchun turli oʻxshamalar olinishi zarur boʻlishi mumkin.

Masalan, turli qatlamlar uchun turli davrga mansub o'xshamalar olinadi. Grafik ta'mir uchun bir o'xshama, amaliy ta'mir uchun boshqa o'xshama kerak bo'ladi.

O'xshamalar imkon qadar ko'proq olinib, ko'p ma'lumot beradi. Ta'mirlovchi o'xshamani o'z didiga qarab tanlamasligi kerak. O'xshamaning yaxshi ma'lumoti yodgorlikning o'zidadir. Yodgorlikning yonlaridagi, ya'ni bir me'moriy majmuaga kiruvchi binolar ham to'g'ri ma'lumot berishi mumkin. O'xshama yaxshi o'rganilgan bo'lishi kerak. Buzilib ketgan bino ham O'xshama sifatida qabul qilinishi mumkin. O'xshamani adabiyot, o'lchov, fotosurat orqali bilish kifoya qilmaydi. Joyiga borib o'rganish kerak bo'ladi. O'xshamalar tadqiq uchun ishlatiladi. Ayrim hollarda ta'mir uchun ham ishlatilishi mumkin. Bir o'xshamani ko'p yodgorliklarda qo'llash ta'mirda "qolip"ga, "shtamp" ga olib kelish xavfini tug'diradi.

Umuman olganda, bitiruv malakaviy ishining amaliy qismi loyiha va ashyodan iborat bo'lib, loyihasi 6 ta 80x80 sm o'lchamga ega bo'lgan planshetlarda hamda koshin bo'lagi aks etgan bitta ashyo o'z aksini topgan. Unda XIX-XX asrlarga oid yurtimiz hududidagi o'yma marmartosh bezagini ta'mirlashdan oldingi, ta'mirlashdan keyingi holatlari, aksanometriyasi, analogiyasi, fiksatsiyasi amalga oshirilgan. Loyihani bajarishda, tush, akvarel va guashdan unumli foydalanilgan bo'lib, ularni o'z o'rnida qo'llash orqali obida bezaklarining tabiiy ko'rinishini qo'rsatish imkoniyati amalga oshirildi. Quyida amalda bajarilgan ishlarni ketma-ketlik asosida tahlil qilib o'tamiz.

1 – planshet. Titul varog'i hisoblangan bu planshetda malakaviy bitiruv ishi pasporti, ya'ni Oliy o'quv yurtining, fakultetning, kafedraning va mutaxassislikning to'liq nomi, shtrix raqami, shuningdek kafedra mudiri, malakaviy bitiruv ishi rahbari, loyiha va ashyo rahbari, diplomant nomlari qayd etilgan (o'lchami 80x80);

2 – planshet. Ulug'bek madrasasining kirish qismidagi peshtoq tepasidagi chizilgan yozuvli naqsh bezagi. Asosan arab yozuvida naqshlangan mozaikada bezatilgan. Yozuvli naqshdagi jumlada quyidagi so'zlar ifodalangan: "Utlu bo'lib hayro inda hisanul vujuhu. Qola Rasulluloh s.a.s". Tarjimada "Rasulluloh s.a.s dedilar: Yaxshilikni yuzi chiroyli kishilardan (ya'ni yuzida iymon nuri barq urib turgan) kishilardan istanglar" ma'nosini beradi. Binoning hoshiya bezagi detallari alohida

ishlangan bo‘lib, u bino loyihasida had, chegarasini tashkil etgan. (o‘lchami 400x1000MM)

Mazkur ishni chizish davrida undagi ustun-guldastalar va mozaika bezaklari, yog‘och ustunlar, arkalar, shuningdek har bir g‘ishtlariga alohida e‘tibor berilgan. Loyihani chizish mobaynida qalam, akvarel, guash, tush, teppera, akril kabi texnikalardan keng foydalanilgan. Mazkur texnikalardan boshqa planshetlarda ham unumli foydalanilgan;

3 – planshet. Mirzo Ulug‘bek madrasasining ichki kirish portal peshtoqining fiksatsiyasi mazkur planshetda to‘la-to‘kis ko‘rsatilgan Mazkur loyiha olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalariga asoslangan holda yaratilganligi alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi;

4 – planshet. Madrasa kirish peshtoqi mozaika bezaklarning bir bo‘lagi (fragmenti) ta‘mirlashdan keyingi, ya‘ni boshqacha qilib aytganda ta‘mirlash loyihasi tasvirlangan;

5 – planshet Madrasa kirish peshtoq qismi bezaklarning bir bo‘lagi (fragmenti) ta‘mirlashdan oldingi holatida tasvirlangan bo‘lib, bunda koshindagi naqshlarning kompozitsiyasi, elementlari va qo‘llanilgan ranglarning umumiy gammasiga hamda buzilgan, ko‘rgan, yemirilgan, ta‘mirtalab qismlari ko‘rsatib o‘tilgan;

6 – planshet. Mirzo Ulug‘bek madrasasining ichki kirish peshtoqi bezaklarining analogiyalari, ya‘ni o‘xshash koshinkorlik namunalari mazkur planshetga chizilgan. Analogiya sifatida turli hududlardagi naqsh kompozitsiyasi, ranglar uyg‘unligi, o‘lchamlari va bezaklari hamda qo‘llanilish uslubiga o‘xshash koshinlar namuna tariqasida olingan (80x80). Shu o‘rinda shuni aytib o‘tish joizki, malakaviy bitiruv ishi muallifi loyihadagi koshinlarga alohida ahamiyat qaratgan holda ilmiy izlanishlarning jamiyki natijalarni ko‘rsatishga harakat qilingan;

Malakaviy bitiruv ishining **7- ashyo** qismiga kirish bezagining kompozitsiyasi bo‘lagi olingan.

Koshinlar qadimgi kulolchilik, koshinkorlik an‘analarini chuqur o‘rganilgan holda malakaviy bitiruv ishi muallifi tomonidan yasaldi.

Koshinlarda lojuvard, sariq, oq, jigar rang, tilla ranglar koʻzga yaqqol tashlanishi bilan ayniqsa ahamiyatlidir. Naqlarning kompozitsiyasi haqida gapiradigan boʻlsak, ularning har biri ustalarning oʻrta asrlarda yaratilgan naqsh kompozitsiyasi anʼanalariga murojaat qilingan holda yaratilganligi koshinlarning betakrorligini asosi sifatida qadrlanadi.

Malakaviy bitiruv ishining amaliy va nazariy qismlarini toʻla-toʻkis yoritish maqsadida bitiruvchi tanlangan obʼyekt boʻlmish Samarqand shahridagi Registon ansamblidan oʻrin olgan Mirzo Ulugʻbek madrasasi koʻplab tadqiqot ishlarini amalga oshirishiga toʻgʻri keldi. Olib borilgan barcha amaliy va ilmiy ishlarning natijalarini mazkur malakaviy bitiruv ishida guvohi boʻlishingiz mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda Registon majmuasi xususan Mirzo Ulug‘bek kabi boshqa bir qancha memoriy obidalar O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston zaminining faxr- iftixori hisoblanadi. Sababi, bu me‘moriy obidalaridagi xalq amaliy san‘ati turlariga oid bo‘lgan namunalar o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida e‘tirof etiladi, hamda shu orqali bugungi kunga kelib o‘zbeklarning, xususan, biz kabi yosh avlodning haqiqiy tog‘lardayin baland g‘ururiga aylangan. Shunday ekan, shu kabi madaniyatimiz va san‘atimiz poyustunlari hisoblangan nodir me‘moriy obidalarni o‘qib – o‘rganish hamda ularni ilmiy jihatdan tadqiq etish va ularni ta‘mirlanishiga o‘zimizning kichik bo‘lsa-da hissamizni qo‘shish bizning ajdodlarimiz oldidagi eng oliy burchimiz hisoblanadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan madaniy yodgorliklarni saqlash va ta‘mirlash jarayonini uzliksiz ravishda olib borilishida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2014 yilda Ulug‘bek madrasasida olib borilgan so‘nggi ta‘mirlash ishlari va Sherdor madrasasining hovlisidagi qarama qarshi peshtoqning ta‘mirlanayotganligi bunga yoqqol misol bo‘la oladi.

Registon maydoni obidalarini ta‘mirlash tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha arxiv materiallari to‘laqonli ravishda o‘rganib chiqildi. Bugungi kunda Registon maydonida ham yilma yil uzliksiz ravishda ta‘mirlash ishlari olib borilmoqda. Ammo shuni ham aytib o‘tish lozimki, ta‘mirlash ishlari bilan bir qatorda maydonga zarar yetkazivchi omillarni ham keltirib o‘tish lozim.

1-bob Mirzo Ulug‘bek davri me‘morchiligining o‘ziga xos jihatlari xususida bo‘lib, unda asosan Mirzo Ulug‘bek davrida me‘moriy majmualarning shakllanishi, Registon maydoni obidalarini o‘rganilish tarixi, Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining me‘moriy xususiyatlariga keng to‘xtalib o‘tilgan. Buyuk bobokalonimiz

Mirzo Ulug‘bek davri arxitekturasi nafaqat o‘zining yangi shaharsozlik g‘oyalari, majmuasozlik mahorati, hashamatli imoratsozligi, turli-tuman qurilmalar va naqshu-pardozi vositalarining yaratilishi bilan ajralibgina qolmasdan, o‘zidan keyingi davrlarda boshqa yondosh davlatlar me‘morchiligi taraqqiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligi keltiriladi. Mirzo Ulug‘bek davri me‘moriy obidalari o‘zining tarixiy qiymati, badiiy-me‘moriy jihatdan yuksakligi, xushbichimligi, juda boy bezaklari, bu bezaklarning hajm sathlariga mosligi, ya‘ni me‘moriy mutanosibligi bilan ajralib turadi.

2-bobda esa, Mirzo Ulug‘bek madrasasining bezaklarini ta‘mirlash jarayoni va loyihasi to‘g‘risida bo‘lib, unda asosan Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining ta‘mirlash ishlari tavsifi, Mirzo Ulug‘bek davridagi inshootlarining badiiy bezaklari tahlili va tavsifiga shuningdek, madrasaning ichki kirish portalini peshtoq bezaklarining loyihasi va ashyodagi ishlar tahliliga bag‘ishlangan. Ulug‘bek madrasasida yillar davomida turli zilzila va suv toshqinlari va namgarchilik sabab kichik kichik konstruktiv ishlar amalga oshirilgan. Mustaqillik yillariga kelib madrasaning deyarli barcha joylari qayta ta‘mirlanadi. 2011-12 yillarga kelib madrasaning g‘arbiy-shimoliy tomon gumbazlari tiklangan. Bu gumbazlar ikki gumbazli bo‘lib, birinchi gumbaz va uning ustida ikkinchi gumbaz bo‘lgan ularning oralig‘i 10 metr bo‘lgan. Shuncha talofotlardan so‘ng ham o‘zining jozibasini va hashamdorligini yo‘qotmagan obida shahar markazining ko‘rki hisoblanadi.

Mazkur ishni o‘rganish ta‘mirlash bo‘yicha loyiha tayyorlar ekanmiz albatta, me‘moriy obida bunyod etilgan davrdagi pardozi –bezaklarning o‘ziga xosliklarini ham tahlil etishni lozim topdik. Demak ko‘rinadiki, Mirzo Ulug‘bek davri bezaklari oldingi davr bezaklaridan farq qilib osmon jismlari shaklidan kelib chiqqan holda yaratilganligi keltiriladi. Asosiy peshtoq qanoslaridagi yulduzsimon bezaklar bunga misol bo‘ladi. XV asrning 1-yarmida Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan obidalarda polixromli (rang-barang) va bir rangdagi bezak unsurlari bir-biriga uyg‘un tarzda qo‘llanilganligi, shuningdek, O‘zbekistonning tarixiy shaharlari istiqloq yillarida o‘z qiyofasiga qaytarilayotganligi ta‘kidlanadi.

Tadqiqot yakunida quyidagi takliflar keltirib o‘tildi:

-Temuriylar xususan Mirzo Ulug‘bek davri arxitekturasi o‘zining yangi shaharsozlik g‘oyalari, majmuasozlik mahorati, hashamatli imoratsozligi, turli-tuman qurilmalar va naqshu-pardoz vositalarining o‘rganish orqali o‘sha davrdan saqlanib qolgan obidalarning ta‘mirlash jarayonidagi ishlarga tadbiq etish lozim;

- Registon maydoni obidalari tarixi va ta‘mirlash jarayoni bog‘liq mavjud ma‘lumotlar asosida xronologik tartibda yagona yaxlit manba ishlab chiqish (masalan: “Xotira kitobi”) orqali ta‘mirlashga doir tavsiyalar berish;

- Mirzo Ulug‘bek nomidagi madrasalarning o‘ziga xos o‘xshash va alohida jihatlarini aniqlash va taqqoslash bo‘yicha qo‘llanma tayyorlash;

- madrasa faoliyatini rivojlantirishda xususiy tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish rejalarini ishlab chiqish;

- Registon majmuasi faoliyatini original reklamasi va OAVda yoritilishini ta‘minlash (ularning ko‘rgazmalari va tadbirlarini alohida ko‘rsatuvda namoyish etish).

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari va rasmiy hujjatlar

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2003.
- 1.2. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-2995 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 24.05.2017 yil// Xalq so‘zi., 103 (6797)-son., 25.05.2017 й.
- 1.3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz// -T.:O‘zbekiston, 2017. B 187.

2. Maxsus adabiyotlar

- 2.1. Алескеров Ю.Ж. Самарканд. Страницы истории. Ташкент. 1967 г.
- 2.2. Алескеров. Ю.Н. Самарканд. Издательство Узбекистана. -Ташкент.1974 й. С-153-169
- 2.3. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. М.: Восточная литература РАН, 2003. С. 162.
- 2.4. Баротольд В.В. Улугбек и его время. Соч.т.II, ч.2, М., 1964
- 2.5. Дудин С. Орнаментика и современное состояние старинных самаркандских мечетей// Известия арх.ком.Вып.7.1903
- 2.6. Кличев. Н. Самарканд// Мехнат -Тошкент.: 2001 й. Б 27-30.
- 2.7. Крюков.К.С. Регистон. Памятник архитектуры. 4. изд. Ташкент,1970 г.
- 2.8. Ettinghausen R., Grabar O. The Art and Architecture of Islam 650-1250//Yale University Press (Pelican History of Art). 1987.

2.9. Массон.М.Е. Самарқанд осори атиқаларига оид уч воқеа. Ўзбекистон.- Тошкент. 1973 й

2.10. Массальский.В.И. Туркестанский край, 19 том. Ташкент. 1913 г

2.11. Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси// Мирзо Улуғбек таваллудининг 615 йиллиги ва 2009 - Халқаро астрономия йилига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари// Самарқанд, 9-11 июнь 2009 й. Тошкент - Самарқанд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2009 й. 99-103-бетлар

2.12. Пугаченкова Г.А., Р.И.Ремпел “Вдэющиэся” памятники архитектуры Ўзбекистана., Тошкент 1958 й. Б-128-130

2.13. Плетнев. И.Е. Обаснавание к проекту реставрации соффитов главного портала Улуғбека. Ташкент. 1920 г.

2.14. Ремпель Л. Архитектурный орнамент Узбекистана. - Т.: Гослитиздат, 1961.-55б

2.15. Рўзиев. Э.М. Самарқанд асрлар чоррахасида. А.Қодирий. - Тошкент.2001. – Б. 19-35.

2.16. Засипкин.Н. “Реставрация памятников архитектуры”. 1973.-45б

2.17. Зоҳидов.Р.Ш. Регистон майдони тарихи. А.Қодирий. -Тошкент.2007 й. Б. 47-69.

2.18. Юсупова.М.А. Самарқанд тарихига назар // Мозийдан садо. – Ташкент, 2003. – № 2 (23). – С. 15-16.

2.19. Содиқова. Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Ўзбекистон Фан нашриёти.-Тошкент. 1981 й. Б. 83-86

2.20. Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият -Т.: 1994, 82-бет

3. Internet saytlar

3.1. www.wikipedia.uz

3.2. www.lex.uz

ILOVALAR

Registon maydoni 2015 yil



Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi tashqi ko'rinishi 2015 yil



Mirzo Ulug'bek madrasasi tashqi ko'rinishi 1911 arxiv materiali





Samarqand Ulug'bek madrasasi 1911-1958 yillar



Madrasaning ichki hovli kirish portalining peshtoq qismi loyihasi

Naqsh ko‘rinish; Geometrik tahlil





Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasaning ichki peshtoq bezagini ta’mirlash loyihasini yaratish jarayoni

